

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

QURBONOV NO'MONJON HABIBULLAYEVICH

ERGASHGAN QO'SHMA GAP TARKIBIDA

OLMOSH ISHTIROK ETGAN

GAPLARNING MAZMUNYIY TUZILISHI

5A 220102-“Lingvistika”

**MAGISTRLIK
DISSERTATSIYASI**

Andijon – 2011

MUNDARIJA:

ISHNING UMUMIY TAVSIFI.

KIRISH.....	5
I BOB. ERGASH GAPLI QO`SHMA GAPLARNING SHAKLIY VA MAZMUNYIY TUZILISHI.....	8
1.1. Ergashgan qo`shma gaplarning shakliy tuzilishi.....	8
1.2. Ergashgan qo`shma gaplarning mazmuniy tuzilishi.....	19
1.3. Ergashgan qo`shma gaplarda shakl va mazmun munosabati.....	24
II BOB. ERGASHGAN QO`SHMA GAPLARDAGI OLMOSH ISHTIROK ETGAN GAPLARNING MAZMUNYIY TUZILISHI.....	32
2.1. Havola bo`laklar va ularning gap mazmunidagi o`rni.....	32
2.2. Havola bo`lakli qo`shma gaplarda shakl va mazmun munosabat.....	42
a) bir havola bo`lakli gaplarning mazmuniy tuzilishi;.....	42
b) ikki havola bo`lakli gaplarning mazmuniy tuzilishi.....	60
UMUMIY XULOSALAR.....	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	71

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda bugungi kunda milliy ma`naviyatimizning yuksaltirish, urf-adat va qadiriylarimizni yoshlar ongi shuuriga singdirish eng dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

«Ma`lumki, o`zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o`rtasidagi ruhiy ma`naviy bog`liqlik til orqali namoyon bo`ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan sangadi. Ona tili – bu millatning ruhidir»¹

Tilimiz jamiyat hayotida bu qadar katta ahamiyatga ega ekan, uning o`ziga xos jihatlarini chuqur o`rganish hozirgi o`zbek tilshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

O`zbek tilshunosligidagi bugungi kunda yaratilayotgan qator tadqiqotlar, izlanishlar aynan shu talablardan kelib chiqadi.

O`zbek tilining barcha sathlari muvaffaqiyatli o`rganildi.² Ma`lumki, tilning sintaktik sathi tilning fonetik, leksik va morfologik sathiga nisbatan yuqori sath hisoblanadi.

Bugungi kunda o`zbek tilini an`anaviy metodlar orqali o`rganish bilan birga, jahon tilshunosligida keng qo`llanilayotgan sistemaviy-struktur metodlar asosida o`rganish tobora kengayib bormoqda.

Har qanday sistem tadqiqot lisoniy birliklarga ma`lum elementlar munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida yondashishni va elementlarning butunga bo`lgan munosabati hamda butun bilan butunning munosabatini yoritib berishni taqozo etadi³. Tilga va uning birliklariga sistema sifatida yondashuv shu kunga qadar tilshunoslik uchun qorong`i bo`lib kelayotgan jihatlarni aniqlashga yordam beradi.

Sintaksisning azaliy muammolaridan biri ergashgan qo`shma gaplar, ularda turli sub`ektiv, modal munosabatlarning ifodalanishi, bunda deyktik belgilar, havola bo`laklarning o`rnini belgilash masalasidir.

Ushbu ishda sintaksisning eng chigal masalalaridan biri bo`lgan shakl va mazmun, struktur va pozitsion asimetriya yorqin namoyon bo`ladigan masalalaridan biri – ergash gapli

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.:Маънавият, 2008, -Б. 83

² Шоабдурахмонов Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидан материаллар. Фонетика. - Т.: Фан, 1953. - 448 б.; Решетов В.В. Узбекский язык. Фонетика. — Т.: Фан, 1964. - 172 с.; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. — Т.: Фан, 1975. - 140 б.; Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз ясашиши. - Т.: Ўқитувчи, 1979. - 112 б.; Ҳожиёв А. Ўзбек тилида форма ясашиши. - Т.: Ўқитувчи, 1979. - 80 б.; Ҳожиёв А. Феъл. - Т.: Фан, 1973. - 192 б.; Тожиёв Ё. Ўзбек тили морфемикаси. ТошДУ, 1993,- 64 б.; Тожиёв Ё. Ўзбек тилида аффикслар синонимияси. - Т.: Ўқитувчи, 1986. -91 б.; Маъруфов. От ва сифат. – Т.: Фан, 1951. - 64 б.; Ҳозирги замон ўзбек тили. -Т.: Фан, 1957. - 67 б.; Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980. - 59 б.; Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси асослари. - Т.: Фан, 1958. - 325 б.; Абдурахмонов Ғ.А. Синтаксис старотюркского языка. -М.: Наука, 1971. - 210 с.; Абдурахмонов Ғ.А. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. - Т.: Ўқитувчи, 1996. 248 б.; Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т.: Ўқитувчи, 1961. - 315 б.; 1975; 1987 ва бошқ.

³ Нурмонов А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. - Т.: Фан, 1982. - С.5; Нурмонов А.Н. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: Янги аср авлоди, 2001. - Б. 3; Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. - Т.: Ўқитувчи, 1995. - Б. 5.

qo'shma gaplarda havola bo'laklarning bir-birini taqozo qilishi, uning o'rni doimo "bo'sh" qolishi, buning natijasida bosh gap va ergash gap o'rtasida mazmuniy nomuvofiqlik yuzaga kelishidir. Mazkur masalaning formal va mazmuniy sintaksis sohalari uchun "chegara" soha ekanligi, zamonaviy tilshunoslikda ergashgan qo'shma gap tarkibida olmosh ishtirok etgan gaplarning muammosi deyarli maxsus tadqiq etilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Til belgilar sistemasi sifatida e'tirof etilganidan buyon lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan tan olindi. Lingvistik belgilar qatorida gap ham alohida o'rin egallab, boshqa lingvistik belgilar qatori shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Shunday bo'lishiga qaramasdan, sobiq sho'rolar davri tilshunosligida lingvistik belgilarning ko'proq shakl tomoniga e'tibor qaratildi, mazmun jihati esa ahyon-ahyondagina esga olindi. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab ana shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qilindi, natijada sintaktik birliklarning shakl va mazmun munosabatini tadqiq etishga bag'ishlangan qator asarlar maydonga keldi¹. Ularda sintaktik birliklarni shakl va mazmun jihatdan modellashtirish, shakliy va mazmuniy birliklarning o'zaro munosabatini belgilash muammolarini yoritishga e'tibor qilindi. Garchi A.Hojiev va N.Mahmudov hamda M. Abuzalovalar tomonidan o'zbek tilshunosligi tarixida ilk bora o'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion tadqiqi masalasi ko'tarilgan bo'lsa-da², lekin bu masala shu kunga qadar monografik tadqiqot ob'ekti bo'lmagan edi.

Ishning maqsadi ergashgan qo'shma gaplarda havola bo'laklarning mavqeini ko'rsatish, ularni mazmuniy jihatdan tadqiq etishdir.

Ishning vazifalari.

- shu kunga qadar jahon va rus tilshunosligi hamda turkologiyada mavjud bo'lgan ergashgan qo'shma gaplar haqidagi qarashlarning tayanch nuqtalarini belgilash;

- havola bo'laklarning ergashgan qo'shma gap shakli va mazmunidagi maqomini aniqlash;

- havola bo'laklarning lug'aviy va sintaktik tabiatini yoritish va ular keltirib chiqaradigan shakl-mazmun nomutanosibligini tadqiq etish

¹ Нурмонов.А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. - Т.: Фан, 1982. - С. 152; Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларнинг семантик-синтактик асимметрияси. - Т.: Ўқитувчи, 1984.-146 б. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. - Т., 1988. - 99 б. Махмудов Н., Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан,1992.- 362 б. Бердалиев А. Эргаш гапли кўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. - Т.: Фан, 1989. -107 б. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўшма гапларнинг шакл-вазифавий (формал-функционал) талқини: Филол. фанлари д-ри дис. ... автореф. - Т., 1998. - 48 б.

² Махмудов Н., Ҳожиёв А. Семантик ва синтактик позиция // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1987. № 2-Б. 60-63; Абузалова М. Қ. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиши қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фанлари номз... дисс. автореф. -Т., 1994. -21 б.

Ishning ilmiy yangiligi:

- o`zbek tilshunosligida deytik belgilar va ularning ergashgan qo`shma gap qurilishi va mazmunidagi o`rni o`rganildi;

- ergash gapli qo`shma gaplar shakl va mazmun munosabati tadqiq etildi;

- bir havola va ikki havola bo`lakli gaplarning tuzilishi masalasi aniqlandi;

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ish «Kirish», ikki bob, umumiy xulosalar va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ish komp yuter Tames new Roman yozuvida 73 betni tashkil qiladi.

KIRISH

Keyingi yillarda sintaktik nazariya taraqqiyotida jiddiy o`zgarishlar ro`y berdi.

Tilshunoslikda ham ilmiy tadqiqotlar bevosita kuzatish bosqichidan, lisoniy hodisalarni avtonom holda tadqiq qilishdan ularning amaliy kuzatish bosqichida ilg`ash mumkin bo`lmagan, faqat hodisalar munosabatidagina namoyon bo`ladigan yashirin xususiyatlarini ochishga imkon beradigan nazariy bosqichga ko`tarildi¹.

Ilmiy tadqiqotlarning amaliy bosqichdan nazariy bosqichga ko`tarilishi tilshunoslikning katta nazariy yutuqlarga erishuviga zamin yaratadi.

Nazariy tilshunoslik amaliy tilshunoslik yutuqlariga tayansa ham, ammo u o`zining hodisalarni tekshirish usuliga ko`ra farq qiladi. Hodisalar muayyan tizimning bir bo`lagi sifatida uning tarkibida boshqa hodisalar bilan munosabatda o`rganiladi. Bunga muvofiq, har qanday lisoniy hodisa muayyan uzvlardan tashkil topgan butunlik sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan sintaktik birliklar ham, avvalo, shakl va mazmun birliklaridan tashkil topgan bir butunlik bo`lish bilan birga, boshqa xuddi shunday butunliklar bilan paradigmatic munosabatda bo`ladi.

Sintaksisning vazifasi sintaktik birliklarning nimalardan tashkil topishini o`rganish bilan birga, ularning boshqa birliklar bilan munosabatini ham ochib berishdan iborat bo`lishi kerak.

Tilning fonologik sath birliklaridan boshqa barcha sath birliklari shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan murakkab qurilma sanaladi. Shuning uchun ham bu sathlarga mansub bo`lgan lisoniy birliklarning har ikki tomonini o`rganish, ularning o`zaro munosabatini belgilash hozirgi tizim (sistem) tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

Sintaktik sathning markaziy birligi bo`lgan gapning tuzilishi morfemik, leksik, morfologik sath birliklari tuzilishiga nisbatan ham murakkabroqdir. Chunki gap mazmuni leksik va morfologik birliklarda mavjud bo`lmagan yangi mazmuniy uzvlar bilan boyiydi. Bu esa gapning murakkab qurilma sifatida tabiatini ochish, uning har qaysi tomonining o`ziga xos xususiyatlarini va ayni paytda, bir butun tarkibida o`zaro munosabatini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Shu kunga qadar o`zbek tilshunosligida gapning asosiy shakliy tuzilishiga e`tibor jalb qilindi. Ahyon-ahyondagina mazmuniy tuzilishga xos bo`lgan xususiyatlar ham esga olindi¹. Lekin mazmuniy tuzilish va uning qanday qismlardan tashkil topganligi, ularning mohiyati tadqiqotchilar nazaridan chetda qoldi.

¹ Нурмонов А. ва бошқ. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т.: Янги аср авлоди, 2001, 4-бет.

¹ Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. Т.: ЎзФан нашриёти. 1958; Абдурахмонов Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тили. II том. Т.: Фан, 1966; Ўзбек тили грамматикаси. II том. Т.: Фан, 1976.

O`zbek tilshunosligidagi ana shu bo`shliqni to`ldirish maqsadida 80-yillardan boshlab bir qator asarlar maydonga keldi¹. Buning natijasida gapning mazmuniy aspekti hali yoritilishi lozim bo`lgan bir qancha muammolarga boy bo`lsa ham, ma`lum darajada oydinlashdi.

An`anaviy tilshunoslik gapning, asosan, shakliy tomonini o`rganishga e`tiborni qaratgan bo`lsa-da, lekin bu sohada ham o`z yechimini kutayotgan muammolar oz emas.

Turkiy tillarda, xususan, o`zbek tilida turli oborotlarni o`z ichiga oluvchi o`ziga xos gap tiplari mavjudki, ularni murakkablashgan sodda gaplar deb baholash maqsadga muvofiqdir².

O`zbek tilidagi ergash gapli qo`shma gaplarni o`rganishda G`Abdurahmonov, M.A.Asqarova, A.Berdialiyevlarning ilmiy tadqiqotlari alohida diqqatga sazovordir³. G`Abdurahmonov va M.A.Asqarovalarning tadqiqotlarida o`zbek tilidagi ergash gaplar, asosan, formal (shakl) jihatdan o`rganilgan. Xususan, M.A.Asqarova «Hozirgi o`zbek tilida ergashish usullari va ergash gap tiplari» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida ergashish usullari va shakllari ergashgan qo`shma gap uzvlarining bog`lanishida ishtirok etuvchi lisoniy vositalarni yoritib bergan⁴. Hatto ergash gaplarning mazmuniy-sintaktik tiplari haqida gap ketganda ham mazmuniyat bilan bog`liq qisqa izohlardan keyin, yana bari bir bog`lovchi vositalar qo`shma gap uzvlarining o`rinlashuvi kabi masalalarga ko`proq e`tibor qilingan. G`Abdurahmonov tadqiqotlarida ham qo`shma gaplarga ana shunday yondashuvni ko`rish mumkin. Bu gaplarni aytishdan murod mazkur tadqiqotlarning o`zbek tilshunosligidagi juda jiddiy qimmatini kamsitish emas. Ularning o`zbek tilshunosligining, umuman, turkiyshunoslikning bugungi taraqqiyoti uchun ilmiy-nazariy zamin hozirlaganligi, shubhasiz, o`zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyotini mazkur tadqiqotlarsiz tasavvur etish mushkul. Aytish mumkinki, yaqinlargacha rus tilshunosligida ham ana shunday formal tahlil yetakchilik qilgan⁵.

¹ Нурмонов А ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Т.: Фан, 1992; Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1995; Махмудов Н. Ўзбек тили содда гапларида синтактик-семантик асимметрия. Т.: Ўқитувчи, 1984.

² Махмудов Н. М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Докт. диссертация. Ташкент, 1984, С. 94—142.

³ Абдурахмонов Г. А. Қўшма гап синтаксиси асослари. Тошкент: УзФА нашриёти, 1958; Асқарова М. А. Ҳозирги замон ўзбек тилида қўшма гаплар. Тошкент: УзФА нашриёти, 1960; Асқарова М. А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке. АДД. Ташкент, 1963; Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 171—240-бетлар; Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. Тошкент: Фан, 1989; Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношения в конструкциях сложноподчиненного предложения узбекского литературного языка. АДД. Ташкент, 1989; Бердиалиев А. Ўзбек тилида омоним модели эргаш гапли қўшма гаплар. Тошкент: Фан, 1990.

⁴ Асқарова М. А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке. АДД. Ташкент, 1963, С. 16—71.

⁵ Лисоний адабиётларнинг шарҳли тавсифи—обзори ҳақида қаранг: Щеулин В. В. Структура сложного предложения. Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского университета, 1968; Щеулин В. В. О классификации сложноподчиненных предложений. Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1972.

I BOB. ERGASH GAPLI QO`SHMA GAPLARNING SHAKLIY VA MAZMUNIIY TUZILISHI

I.1. Ergashgan qo`shma gaplarning shakliy tuzilishi

Qo`shma gap til sintaktik sathining oliy birligidir. Sodda gap ham sintaktik sath birligi hisoblansa-da, u qo`shma gapga qaraganda anchayin ixcham birlikdir. Qo`shma gap sodda gapdan, eng avvalo, mazmun sig`imining kattaligi, mazmuniiy-sintaktik tuzilishining o`ziga xosligi, murakkabligi bilan farqlanadi. Albatta, har ikki gap turi — sodda gap ham, qo`shma gap ham muayyan hukm ifodachisi sifatida mavjud bo`lsa-da, tilning kishilar o`rtasida aloqa vositasi bo`lishday eng muhim vazifasi bevosita gaplarda namoyon bo`lsa-da, sodda va qo`shma gaplar tuzilishi va mazmuniiy tarkibi hamda bu tarkibni yuzaga keltiruvchi uzvlar munosabati ularning har birida mutlaqo o`ziga xosdir. Mantiq fani nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo`lsa, sodda gaplarda asosan sodda hukm, qo`shma gaplarda esa murakkab hukm ifodalanadi¹.

Qo`shma gap bir sodda gaplarning ohang, mazmun va grammatik jihatdan bog`lanishi orqali yuzaga keladi. Bunda sodda gaplar o`rtasida turlicha bir-birini taqozo qiluvchi munosabatlar bo`lishi mumkin. Qo`shma gapning umumiiy lisoniiy mohiyati uning sodda gap bilan o`zaro munosabatida ochiladi. Lisoniiy qurilish jihatidan qo`shma gapning sodda gapdan farqi ma`lum darajada ravshan. Aniqrog`i, sodda gapda shakllangan kesim yoki kesimlik belgisi miqdori bitta bo`lsa, qo`shma gapda u birdan ortiq bo`ladi va birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi.

Kesimlarning birdan ortiqligidan tashqari, har bir qo`shma gapda ifodalanayotgan birdan ortiq fikr, axborotning o`zaro zich munosabati, gaplararo grammatik taqozo etuvchilik hamda intonatsion yaxlitlik kabilar ham bu sintaktik qurilmalarning qo`shma gapligini ta`minlaydi.

Kommunikativ nuqtai nazardan qo`shma gapda birdan ortiq hukm o`z ifodasini topgan bo`ladi. Shuningdek, bu alohida axborotlar asosidagi munosabat ham qo`shma gapda qaysidir darajada bo`rtib turadi. Masalan: *Jahongir keldi. Men shu ondayoq jo`nadim* gaplarida ifodalangan fikrlar bir-biriga o`zaro bog`liq bo`lib, gaplarning biri ikkinchisini taqozo etadi. Bu jihatdan ular *Jahongir keldi va men shu ondayoq ketdim* gapidan ajralib turadi.

Demak, qo`shma gap grammatik shakllangan va birdan ortiq axborotni tashish uchun mo`ljallangan nisbiy mustaqil sodda gapning grammatik, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatdan yaxlitlangan butunligidir².

Qo`shma gap tarkibidagi sodda gap alohida olingan sodda gapdan nisbatan mustaqil

¹ Sodda va murakkab hukm haqida *qarang*: Tavanec T. V. Суждение и его виды . М.: "Изд-во АН СССР, 1953, С. 30-140; Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика. Тошкент: Ўқитувчи, 1984, 152-155-бетлар.

² R. Sayfullayeva, Mengliyev B. va b. Hozirgi o`zbek adabiiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya , 2009. – 392-bet.

emasligi bilan ajralib turadi. Avvalo, bu — grammatik va ohang jihatdan nomustaqillik. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gapning o'zaro zichlashuvi mazmun, grammatik shakl va intonatsiya nuqtai nazaridan bo'ladi. Ammo bu omillar darajali ziddiyatda turadi: *ohang — grammatik shakl — mazmun*

Chunki mazmuniy bog'liqlik va grammatik shakl mavjud bo'lsa ham, birlashtiruvchi intonatsiya bo'lmasa, ayrim gaplar qo'shma gapni tashkil eta olmaydi. Ammo mazmuniy bog'liqlik va grammatik aloqa bo'lmasa ham, intonatsiya asosida qo'shma gap hosil qilish mumkin (bog'lovchisiz qo'shma gap). Sodda gaplar asosida ajratuvchi pauza bo'lganda, qo'shma gapning yaxlitligiga putur etadi. Masalan, *Men sen bilan bormoqchi edim. Biroq sen qarshilik qilmasliging kerak*. Gaplar orasida qo'shma gapning barcha belgilari mavjud. Birgina birlashtiruvchi ohangning yo'qligi sodda gaplarning mustaqil bo'lishiga olib kelgan.

Qo'shma gap esa har biri o'z tuzilishiga ega bo'lgan birdan ortiq kesimdan tashkil topadi:
Jamshid o'qirdi, Jahongir yozardi, Isroil esa chizardi.

Substantsial yondashuvda bir egali, lekin birdan ortiq kesimli gap ham qo'shma gap sifatida qaraladi. Chunki har bir kesimda shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modallik (kesimlik) ma'nolari birdan ortiq ifodalanadi. Bu esa semantik nuqtai nazardan ularning har birida alohida axborot mavjudligidan dalolat beradi.

Qo'shma gap tarkibiga kiruvchi sodda gap orasida teng yoki tobe sintaktik aloqa mavjud bo'ladi. Agar u teng bog'lovchi yordamida amalga oshirilgan bo'lsa, tenglanish deyiladi: 1. *O'g'lim keldi va to'yni boshlab yubordik*. 2. *Bahor keldi va dala ishlari qizib ketdi*. To'g'ri, bu gaplar orasida sabab-oqibat aloqasi mavjud va ularni mazmunan tobe-hokim gaplarga kiritish mumkin. Biroq gaplarda mazmunan tobelik, shaklan tenglik mavjud bo'lganda, formal yondashuv gaplarni teng munosabatli qo'shma gap sifatida qaraydi. Shu boisdan bog'lovchili qo'shma gap bog'lovchining tabiatiga ko'ra, bog'langan qo'shma gap va ergash gapli qo'shma gapga ajraladi.

Tenglanish va tobelanish aloqasi ifodalaydigan ma'naviy munosabati jihatidan sodda va qo'shma gap farqlanadi. Sodda gapda bog'lovchisizlik, asosan, tenglanish munosabatini ifodalaydi va uyushiq bo'laklarda yuz beradi. So'z birikmasi tarkibidagi grammatik vositali tobelanishni bog'lovchisizlik, vositasizlikka almashtirib bo'lmaydi. Qo'shma gapda esa ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ham, bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ham bog'lovchisiz gapga aylantirish mumkin. Uning aloqa turi bog'lovchisiz aloqadir. Masalan:

1. *Botirlari kanal qazadi, shoirlari g'azal yozadi.* (H.O). 2. *Bor boricha, yo'q holicha*. 3. *Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.* (Maqol). 4. *Yuragida qanday dard bor — mana bu menga sir.*

Bog`lovchisiz qo`shma gap tarkibidagi sodda gap o`zaro tobe yoki teng bog`lovchi vositasiz birikadi. Ammo bu gapda mazmuniy va intonatsion yaxlitlik kuchayadi. Chunki bog`lovchi vosita, mazmuniy va intonatsion birikuvchanlik omili qo`shma gap tarkibida yaxlitlikni tashkil etib, ulardan biri kuchsizlansa, boshqalari buning evaziga kuchayadi. Demak, bog`lovchisiz qo`shma gapda bog`lovchi vositaning hissasi mazmuniy va intonatsion birikuvchanlik omili zimmasiga yuklatiladi.

Qo`shma gap ham lisoniy birlik sifatida murakkab tabiatli bo`lib, bu murakkablik uning lisoniy sathda tutgan o`rni, tarkibidagi sodda gapning grammatik shakli va bog`lovchi vositalari hamda mazmuniy munosabatining rang-barangligi bilan belgilanadi. Shuningdek, qo`shma gap turlarini xilma-xil asoslarda turlicha tasniflash mumkin bo`ladi. Tasnif asosining aniqligi va izchil amalga oshirilishi masala mohiyatini oydinlashtirishda muhim.

Qo`shma gapning ma`noviy va struktur tasnifi ko`p holda o`zaro farqlanadi.

Formal sintaksis qo`shma gap tasnifida ko`p hollarda ularning nutqiy belgi-xususiyati, zohiriy alomatiga tayanadi. Substantsial sintaksis tasnifi esa qo`shma gapning lisoniy mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Qo`shma gapning tarkibidagi bog`lovchi vositalariga ko`ra sof shakliy bo`lib, gap orasidagi ma`noviy bog`lanish qanday qo`shimcha (shakliy) vosita bilan ta`minlanishiga tayanadi. Bu asosga ko`ra qo`shma gapning quyidagi turlari ajratiladi:

- a) faqat ohang bilan bog`langan qo`shma gap;
- b) yuklamalar vositasida bog`langan qo`shma gap;
- s) teng bog`lovchilar vositasida bog`langan qo`shma gap;
- v) ergashtiruvchi bog`lovchilar vositasida bog`langan qo`shma gap;
- g) nisbiy so`zlar vositasida bog`langan qo`shma gap¹.

Yuqoridagi vositalardan ergashtiruvchi bog`lovchilar, ayrim yuklamalar, nisbiy so`zlardan tashqari, ko`makchili qurilmalar, shart mayli shakli *–sa, deb, uchun* kabi ko`makchilar ergash gapli qo`shma gaplar qismlarini tobelashtirib bog`lashga xizmat qiladi. Ularni quyidagi jadval orqali ko`rishimiz mumkin:

№	Ergashtiruvchi bog` .	Sof bog`lovchilar	Vazifadosh bog`lovchilar
1	Aniqlov bog`lovchilari	Ya`ni	-ki
2	Sabab bog`lovchilari	Chunki, negaki	-
3	Shart bog`lovchilari	Agar, agarda, gar, mabodo, basharti, garchi, garchand	-
4	Maqsad bog`lovchisi	-	toki

¹ R. Sayfullayeva, Mengliyev B. va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 398-bet.

5	Qiyoslash-chog`ishtiruv bog`lovchilari	-	go`yo, go`yoki, xuddi
---	--	---	-----------------------

Yuqoridagilardan shart bog`lovchilari $\bigcirc \rightarrow \square$ qolipli gaplarda voqelashsa, boshqa ergashtiruvchi bog`lovchilar $\square \leftarrow \bigcirc$ qolipli gaplarni tuzishda ishtirok etadi. Masalan:

Agar uning dardi bo`lsa, o`z savollarim bilan yarasiga tuz sepkan bo`laman.
(O`Umarbekov)

Oyna opa xatni oxirigacha o`qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi. (Sh.Xolmirzaev)

Ko`rinib turibdiki, shart bog`lovchilari qatnashganda *-sa* shart mayli qo`shimchasi ishtirok etadi.

O`zbek tilidagi ergash gaplarning tasnifi umuman boshqa tillardagi, ergash gaplarning tasnifiga yaqin turadi. Bu tasodifiy emas, albatta. Chunki «turkiy tillardagi, shuningdek, boshqa tillardagi ergash gap nazariyasi sodda gap nazariyasi bilan uzviy bog`langan»¹. Ergash gaplarni sodda gaplardagi muayyan bo`laklar bilan nisbatlash tilshunosliklarda juda uzoq an`anaga ega². Ayrim tilshunosliklarda, masalan, ispan tilshunosligida ergash gaplarning vazifasini so`z turkumlarining sodda gaplardagi vazifasi bilan tenglashtirishdan iborat qarash ham bor³. Lekin bu qarash ham avvalgi qarashdan mohiyatan unchalik farq qilmaydi.

Rus tilshunosligida bunday karashlarning shakllanishiga batafsil to`xtab o`tirmasdan, V.A.Beloshankovning umumlashtirishlariga murojaat qilib qo`ya qolgan ma`qul. U yozadi: «Rus sintaksis ilmidagi turli davrlarda ergash gapli qo`shma gaplarni tasniflashning uch moyasi (printsipi) ilgari surilgan edi. Ergash gapli qo`shma gaplarni yaxlitligicha sodda gaplarga, ergash gaplarni esa sodda gap bo`laklariga o`xshatishga asoslangan tasnif juda keng tarqaldi. Bu moyaga asoslangan tasnif qolipi o`zining mohiyat e`tibori bilan XIX asrning o`rtalarida shakllandi; uning yaratilishida F.I.Buslaevning xizmatlari benihoya kattadir. Bu tasnifning asosiy moyasiga muvofiq ergash gaplar orasida ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi va hol ertash gaplar farqlanadi, hol ergash gaplarning turlari sifatida o`rin, ravish, daraja va miqdor, payt, sabab, maqsad, shart, to`siqsizlik ergash gaplar ajratiladi.

Ergash gaplarni sodda gap bo`laklariga o`xshatishga asoslangan tasnifga ergash gapli qo`shma gaplarni bosh va ergash qismlarning bog`lanish vositalariga ko`ra shakli tasniflash

¹ Баскаков А. Н. Предложение в современном турецком языке. М.: Наука, 1984, С. 119.

² Щеулин В. В. О классификации сложноподчиненных предложений. Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1972, С. 3—12; Корнилов В. А. К проблеме изоморфизма сложно-подчиненного предложения и подчинительного словосочетания. — В кн.: Подчинение в полипредикативных конструкциях, Новосибирск: Наука, 1980, С. 13.

³ Васильева - Шведе О. К., Степанов Г. В. Теоретическая грамматика испанского языка. Синтаксис предложения. М.: Высшая школа, 1981, С. 232.

qarama-qarshi qo`yiladi. Bunday tasniflash A.M.Peshkovskiy, M.N.Peterson, L.A.Bulaxovskiy, A.B.Shapiroolar tomonidan ilgari surilgan va himoya qilingan. Ergash gapli qo`shma gaplar orasida ikki asosiy tip farqlangan: bog`lovchi vazifasidagi so`zli gaplar (nisbiy ergashish) va bog`lovchili gaplar (bog`lovchili ergashish).

Tarkibiy-mazmuniy tasnifning yaratilishida N.S.Pospelovning ishlari muhim rol o`ynadi, u ergash gapli qo`shma gaplarning ikki asosiy tipini ajratgan: ikki a`zoli tip va bir a`zoli tip. Ikki a`zoli va bir a`zoli gaplar o`rtasidagi farqni N.S.Pospelov bosh va ergash qismlar o`rtasidagi aloqadorlikning turli tabiati bilan bog`laydi: ikki a`zoli gaplarda ergash qism bosh qism bilan yaxlitligicha bog`lanadi, bir a`zoli gaplarda ergash qism bosh gapdagi bir so`zga tegishli bo`ladi, bunda u bu so`zni rivojlantiradi yoki aniqlashtiradi¹. V.A.Beloshapkovaning o`zi ayni tiplarni «bo`laklangan» («raschlenenno`y») va «bo`laklanmagan» («neraschlenenno`y») gaplar deb nomlaydi². N.S.Pospelov va V.A.Beloshapkovalarning bu masaladagi qarashlarida printsiptial farq yo`q.

Ergash gaplarning bosh gapni yaxlitligicha izohlashi yoki uning biror bo`lagi bilan aloqador bo`lishi haqidagi qarash turkiyshunoslikda ham keng tarqalgan. Masalan, M.A.Asqarova shunday ta`kidlaydi: «Ergash gap esa mazmun va strukturasi ko`ra bosh gapdan ko`ra boshqacharoq tuzilib, bosh gapning biror bo`lagini yoki bosh gapni yaxlitligicha izohlaydi»³. Ozarbayjon tilidagi ergash gapli qo`shma gaplardagi bosh va ergash gap munosabatidagi ayni xususiyatni ta`kidlagan holda A.Z.Abdullaev va A.G.Javodovlar turkiy tillardagi, xususan, ozarbayjon tilidagi ergash gapli qo`shma gaplarni ikki mazmuniy-sintaktik guruhga — «bir mazmuniy» va «ikki mazmuniy yadroli» gaplarga ajratishni tavsiya qiladilar. Bunda ular boy gapdagi biror bo`lakni izohlaydigan ergash gapli qo`shma gaplar ko`proq bir mazmuniy yadroga va bosh gapni yaxlitligicha izohlaydigan ergash gapli qo`shma gaplar ko`proq ikki mazmuniy yadroga ega bo`lishini aytadilar⁴. Lekin, garchi mualliflar bunday tasniflashni barcha turkiy tillar uchun tavsiya qilayotgan bo`lsa-da, uni o`zbek tili uchun to`lig`icha tatbik, etib bo`lmaydi. Chunki ular farqlayotgan «bir mazmuniy yadroli» va «ikki mazmuniy yadroli» qo`shma gaplar tushunchalari biz yuqorida aytib o`tgan bir denotativ voqea ifodalangan va ikki (yoki undan ortiq) denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo`shma gaplarga yaqin keladi. O`zbek tilida, yuqorida ko`rib o`tilganiday, modus bosh gap orqali ham, ergash gap orqali ham ifodalana oladi, ergash gap orqali ifodalanganda esa bu gap shaklan bosh gapga to`lig`icha tegishli bo`ladi (*Men sizga to`g`risini aytsam, siz bu yerlarni ko`rmagansiz*). Misol tariqasida keltirilgan gapdan ko`rinib turibdiki, unda bir denotativ voqea — «mazmuniy

¹ Белошапкова В. А. Современный русский язык. Синтаксис. М: Высшая школа, 1977, С. 216—219.

² Белошапкова В. А. Ўша асар, 220-бет.

³ Гуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. -Т.: Ўқитувчи, 1987, 187-б.

⁴ Абдуллаев А. З., Джавадов А. Г. О семантическом ядре азербайджанского сложноподчиненного предложения. Советская тюркология, 1987, № 1, С. 52—53.

yadro» ifodalangan. Demak, mazkur tilshunoslar fikriga to`lig`icha qo`shilish mumkin emas.

Aytish mumkinki, ergash gaplarni tasniflashda keyingi paytlarda u yoki bu tarzda turli tilshunosliklarda ergash gapli qo`shma gaplarning sodda gaplarga qiyoslanishidan qochishga qanchalik harakat qilinmasin, bari bir bu harakatlar mohiyatan ana shu qiyoslanishdan uzoqqa ketolmayapti. M.I.Cheremisina va T.A.Kolosovalar ta`kidlaganlaridek, «tobe predikativ birliklarning vazifalari bilan gap bo`laklari vazifalari o`rtasidagi o`xshashlik hozir urf (modada) bo`lmasa-da»,... «bu o`xshashlikdan qochib qutulish qiyin»¹. Ularning fikricha, tobe predikativ birliklarning vazifalarini sodda gap bo`laklarining vazifalari bilan solishtirish mumkin. Ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi, turli mazmuniy turlarga ega bo`lgan hol vazifalari sodda gapda so`z shakllari, so`z birikmalari, turli sintaktik tizimlar orqali bajarilishi mumkin. Ayni vazifalar predikativ birliklar orqali bajarilganda, gap qo`shma gapga aylanadi².

Har qanday gap aslida muayyan sintaktik o`rinlar (pozitsiyalar) sistemasidan iborat. Sodda gaplardagi sintaktik o`rinlar ergash gapli qo`shma gaplardagi sintaktik o`rinlardan aslida farq qilmaydi, ular bir xil³.

Sintaktik o`rin gapdagi predikatni ifodalagan so`zning ma`nosi va demak, valentligiga ko`ra yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, bosh gapning kesimi vazifasidagi so`zning ma`nosi va valentligi ergash gapning mohiyatini va qo`llanishini ta`minlaydi⁴. Predikatnik valentligiga ko`ra yuzaga keladigan sintaktik o`rin, agar predikatning mazmuniy imkoniyati yo`l qo`ysagina, tobe predikativ birlik tomonidan egallanishi mumkin. Aks holda ergash gapli qo`shma gap tarkib topmaydi. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar ergash gapli qo`shma gap tarkibini tasvirlashda valentlik nazariyasidan foydalanadilar⁵. Ergash gapli qo`shma gaplarning mazmuniy sintaksisini o`rganishda ham o`rni bilan valentlik nazariyasiga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Aytilgan mulohazalardan shu narsa kelib chiqadiki, ergash gapli qo`shma gaplarni o`rganishda bari bir sodda gaplardagi bo`laklarning vazifalaridan andoza olgan ma`qul. Chunki yaxlit pozitsion struktura (sintaktik o`rinlar tizimi) sifatida ergash gapli qo`shma gaplar sodda gaplardan deyarli farq qilmaydi. Ergash gapli qo`shma gaplarda gapning grammatik «sinchi» (karkasi), asosini bevosita bosh gap tashkil qiladi. Ergash gap esa u yoki bu tarzda ana shu bosh gap tarkibiga muayyan bir bo`lak sifatida kiradi. «Bosh gap tarkibidagi muayyan bo`lakni

¹ Черемисина М. И., Колосова Т. А. Очерки по теории сложного предложения. Новосибирск: Наука, 1987, С.61.

² Ўша жойда, 105-бет.

³ Шутова С. И. Вопросы теории синтаксиса, М.: Наука, 1984, С. 55.

⁴ Гаврилов.Г. Ф. Об изоморфизме сложноподчиненного предложения и словосочетания. — В кн.: Подчинение в полипредикативных конструкциях. Новосибирск; Наука, 1980, С. 29.

⁵ Страхова В. С. Некоторые лингвистические основы обучения гипотаксису. — В кн.: Проблемы учебника русского языка как иностранного. Синтаксис. М.: Русский язык, 1980, С. 456—457,

izlaydigan ergash gaplar» deb ajratilganda ham shu narsa nazarda tutiladi¹.

Endi «bosh gapni yaxlitligicha izohlaydigan ergash gaplar» degan iboraga kelsak, u mantiqan to`g`ri emas. Bunday gaplar ham bosh gapdagi muayyan bir bo`lak — hol vazifasida keladi. Ergash gaplarning bu tipini baholashda ko`pincha ayrim tilshunoslar ularni hol ergash gaplar deyishdan o`zlarini tiyadilar. Bu munosabat bilan R. Sayfullaeva shunday yozadi: «Hol ergash gapli qo`shma gap bilan ikkinchi darajali bo`laklardan biri bo`lgan hol turlarining son jihatdan teng kelmasligidan cho`chiymizmi?! Hol predikativ birlik emas, balki u gap bo`lagidir. Hol ergash gap esa predikativ birlik bo`lib, diskursning bir elementi. Demak, hol bilan hol ergash gapni bir planda o`rganib bo`lmaydi, ular semantik turlarining son jihatdan teng bo`lishi ham shart emas»². Lekin R.Sayfullaeva bari bir an`anadan chiqib ketolmaydi: «Ergash gap bosh gapning biror bo`lagini izohlaydi. Agar bosh gapdagi izohlanuvchi bo`lak ifodalanmasa, ergash gap bosh gapni butunicha izohlaydi»³. Aslida «butunicha izohlaydi», «bosh gapga butunicha aloqador bo`ladi», qabilidagi iboralarning o`zi aniq emas. Qanday qilib ergash gap yaxlit bosh gapni izohlashi mumkin? Har qanday gap bo`lagi (aniqlovchi bundan mustasno) funktsional jihatdan faqat kesimga aloqador bo`ladi. Keng ma`nodagi hol sintaktik o`rnini egallagan predikativ birlik, ya`ni demak, ergash gap ham yaxlit bosh gapga emas, balki uning bir konstruktiv bo`lagi — kesimiga aloqador bo`ladi. Boshqacha qilib aytganda, gapning hol bo`lagi, shubhasiz, kesimga tobe bo`lsa-da, kesim pozitsiyasidagi so`zning kuchli sintagmatik valentligini mutlaqo reallashtira olmaydi. Ta`kidlash lozimki, hol gapning asosiy mazmunini tashkil qiluvchi voqea bilan u yoki bu jihatdan bog`langan voqeani ifodalovchi gap bo`lagi bo`lib mazmun tomondan «gap ichida gap ifodalovchi» sifatida kelishdek o`ziga xoslik bilan xarakterlanadi⁴. Bu, tayinki, predikativ birliklarni bu sintaktik o`rinni egallab, ergash gap bo`lib kelishlari uchun juda ham qulaydir. Shuning uchun ham hol sintaktik o`rinni, u sodda gapda bo`lsa ham, ergash gapli qo`shma gapda bo`lsa ham nisbatan erkin deb qarash mantiqiydir⁵.

Ko`rinadiki, ergash gaplarning har qanday turi ham u yoki bu tarzda bosh gapda muayyan bir bo`lak bilan aloqalanadi. Tabiiyki, bu aloqalanish usullari xilma-xil. Lekin bundan boshqacha deb qarash, ya`ni ergash gap yaxlit bosh gap bilan aloqalanadi deb qarash bosh gapdagi kesimning mazmuniy-sintaktik maqomini kamsitishga olib keladi. Shuning uchun ham N.A.Baskakov hozirgi turk tilidagi ergash gaplarni quyidagicha guruhlariga ajratadi:

1. Bosh gapdagi substantiv bo`laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga ega va to`ldiruvchi ergash gaplar kiradi.

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992. - 240-241- б.

² Сайфуллаева Р. Эргашган қўшма гапининг таснифи. Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 3-сон, 22-бет.

³ Сайфуллаева Р. Эргашган қўшма гапининг таснифи. Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 3-сон, 22-бет.

⁴ Кацнельсон С. Д. Кўрсатилган асар, 22-бет.

⁵ Ҳожиёв А., Маҳмудов Н. Семантика ва синтактик позиция. Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, 2-сон, 31—32-бетлар.

2. Bosh gapdagi atributiv bo`laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga kesim va aniqlovchi ergash gaplar kiradi.

3. Bosh gapdagi atributiv — hol bo`laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga sabab-natija, shart, to`siqsiz, maqsad, payt, o`xshatish va chog`ishtirish ergash gaplar kiradi¹.

O`zbek tilshunosligida ergash gaplar (boshqa ko`pgina tilshunosliklardagi kabi) mazmuniy-shakliy jihatdan 14 turga ajratiladi: 1) ega, 2) kesim, 3) to`ldiruvchi, 4) aniqlovchi, 5) ravish, 6) o`lchov-daraja, 7) chog`ishtirish-o`xshatish, 8) sabab, 9) maqsad, 10) payt, 11) o`rin, 12) shart, 13) to`siqsiz, 14) natija ergash gaplar².

Qo`shma gap tarkibiy qismlari orasida tobelik aloqasi mohiyatan so`z birikmasi tarkibiy qismlari orasidagi hokim-tobelik munosabati bilan o`xshash. Farq shundaki, bunda tobe qism ham, hokim qism ham alohida gap bilan ifodalanadi. Shundan kelib chiqqan holda, gap bo`laklariga muvofiq ravishda bunday qo`shma gaplar 5 turga ajratiladi.

1. Kesim tobe gapli qo`shma gap: *Meni hayratda qoldirgan narsa shuki, qiz juda og`ir yarador bolishiga qaramay jilmayar edi.* (Oydin)

2. Ega tobe gapli qo`shma gap: *Kim birovga chuqur qazisa, unga o`zi yiqiladi.* (Maq.)

3. Hol tobe gapli qo`shma gap: *Yomg`ir aralash qor yog`ib turgan bo`lsa ham, u negadir shoshilmas, xayol bilan band edi.* (O.Yoq.)

4. To`ldiruvchi tobe gapli qo`shma gap: *Shunga erishishimiz kerakki, ayollar hayotning har bir sohasida yerlar bilan teng bo`lsin.* (A.Qah.)

5. Aniqlovchi tobe gapli qo`shma gap: *Umlar bo`ladiki, tirigida o`likdir. Umlar bo`ladiki, mangulikka tirikdir.* (M.Shayx.)

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, bu tasnif ma`no bilan bog`liq bo`lganligi sababli bir qo`shma gapning o`zi xilma-xil tasnif etilishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, ergash gapli qo`shma gaplar, umuman, qo`shma gaplarning qurilishi turli shakllarga – qoliplarga ega. Har bir qolip alohida grammatik vositalarni talab qiladi.

¹ Баскакова А. Н. Предложение в современном турецком языке. М. : Наука, 1984, С. 157.

² Фуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 187-бет.

I.2. Ergashgan qo`shma gaplarning mazmuniy tuzilishi

O`zbek tilshunosligida, umuman, turkiyshunoslikda, hatto boshqa tilshunosliklarda ham, ayniqsa, ergash gapli qo`shma gaplar atrofidagi bahslar ko`pdan davom etib keladi. Zero, ergash gapli qo`shma gaplar bog`langan qo`shma gaplarga qaraganda uzvlari o`rtasidagi mazmuniy-tarkibiy munosabatlar tabiatiga, bu munosabatni yuzaga keltiruvchi mazmuniy, mantiqiy va sintaktik mexanizmlarning juda ancha murakkabligiga ko`ra farq qiladi. Shuning uchun ham ergash gapli qo`shma gaplarni baholashda jiddiy muammolar anchagina. Bu, ayniqsa, tarkibida sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart fe`li o`ramlari va boshqa tizimlar mavjud bo`lgan sintaktik birliklarni baholashda ko`proq ko`zga tashlanadi. Ana shunday gaplarning sintaktik maqomini belgilashda, ya`ni bunday gaplar sintaktik sodda gapmi yoki ergash gapli qo`shma gapmi? degan masaladagi munozara hali tingan emas, bu masalaga bag`ishlangan maxsus kengash ham oxirgi gapni ayta olmadi¹. Hali hanuzgacha yagona to`g`ri, ko`pchilik tomonidan e`tirof qilingan bir fikrga kelinganicha yo`q². Ayrim tilshunoslar hatto o`z «ega»siga ega bo`lgan sifatdosh oboroti ishtirok etgan *Men o`qigan kitob qiziq ekan* qabilidagi gaplarni aniqlovchi ergash gapli qo`shma gaplar sifatida talqin etadilar³. Bunda ular ana shunday gaplarning rus tiliga tarjimasini qo`shma gap shaklini olishidan kelib chiqqanlar, chog`i. Bir qator tilshunoslar asosli ravishda ta`kidlaganlaridek⁴, turli fe`l shakllari asosida shakllangan oborotlarni rus tiliga tarjima qilganda, u tilda bu tizimlar ergash gaplar shaklida bo`lishiga asoslanib, ularni ergash gap, deb qarash mutlaqo noto`g`ri va g`ayriilmiydir. Turkiy tillarda, xususan, o`zbek tilida turli oborotlarni o`z ichiga oluvchi o`ziga xos gap tiplari mavjudki, ularni murakkablashgan sodda

¹ Вопросы грамматики тюркских языков (Материалы координационного совещания по проблемам глагольного вида и сложноподчиненного предложения в тюркских языках, состоявшегося 24—27 сентября 1956 г.). Алма-Ата, 1958.

² Аскарлова М. А. К критериям придаточных предложений в современном узбекском языке. — В кн.: Структура и история тюркских языков. М.: Наука, 1971, С. 148—155; Фаджиева Н. З. Критерий выделения придаточных предложений в тюркских языках. — Вопросы языкознания, 1957, № 3; Севортыян Э. В. О некоторых вопросах сложноподчиненного предложения в тюркских языках. — Вопросы языкознания, 1957, № 3; Севортыян Э. В. О некоторых вопросах сложноподчиненного предложения в тюркских языках. — В кн.: Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Часть III. Синтаксис. М.: Изд-во АН СССР, 1961, С. 122—134; Закиев М. З. Синтаксический строй татарского языка. Казань: Изд-во Казанского университета, 1963, С. 275; Баскаков Н. А. Историко-типологическая характеристика структуры тюркских языков. М.: Наука, 1975, С. 239; Ярцева В. Н. Контрастивная грамматика. М.: Наука, 1981, С. 98—99; Кононов А. Н. Тюркская филология в СССР (1917—1967). М.: Наука, 1968, С. 31—32.

³ Фуломов А. Ўзбек тилида аниқловчилар. Тошкент, 1941, 74-бет; Магруфов А. Сложноподчиненное предложения с придаточными времени в современном -узбекском языке. АКД, Ташкент, 1949, С. 7; Грунина Э. А. Некоторые вопросы синтаксиса сложноподчиненного предложения в современном литературном узбекском языке. — В кн.: Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Часть III. Синтаксис. М.: Изд-во АН СССР, 1961, С. 149—150; Нартнев Н. Строй сложного предложения в современном туркменском языке. Ашхабад: Былым, 1988, С. 94—95.

⁴ Закиев М. З. Синтаксический строй татарского языка. Казань: Изд-во Казанского университета, 1963, С. 276—277; Баскаков Н. А. Историко-типологическая характеристика структуры тюркских языков. М.: Наука, 1975, С. 242.

gaplar deb baholash maqsadga muvofiqdir¹.

Har qanday til birligi kabi gap ham, xususan, qo`shma gap ham ikki tomonlama birlikdir, ya`ni ifoda tomoni va mazmun tomoniga ega. Uzoq vaqtlar mobaynida qo`shma gapning asosan ifoda va qisman mazmun tomonlari o`rganildi. Keyingi yillarda tilshunoslikda gapning mazmun tomoniga, «semantika» deb yuritiladigan jihatga e`tibor kuchaydi, mazmuniy (semantik) sintaksis, degan yo`nalish yuzaga keldi. A.Berdialievning tadqiqotlari ana shu yo`nalishdagi o`zbek tilshunosligidagi dastlabki ishlardandir. Uning doktorlik dissertatsiyasida ergash gapli qo`shma gaplardagi paradigmatic va sintagmatic xususiyatlar chuqur tadqiq etilgan. Ergashgan qo`shma gaplarning mazmuniy-signifikativ xususiyatlari, ulardagi sintaktik omonimiya, polisemiya, ko`p funktsionallik kabi bir qator muhim masalalar ishonarli tarzda hal qilingan. Shubhasiz, bu ish o`zbek tilshunosligidagi qo`shma gap nazariyasiga qo`shilgan muhim hissadir. Lekin ishning kirish qismida alohida ta`kidlanganiday, tadqiqotdagi asosiy metod tarkibiy-mazmuniy (mazmuniy-tarkibiy emas) bo`lib, u «shakldan mazmunga» qabilidagi tahlilga asoslangan². Aytish kerakki, tahlil faqat «shakldan mazmunga» qabilidagi moya asosida olib borilganda, bevosita lisoniy shakllarda o`z ifodasini topmaydigan, tildagi turli vositalarning bir-biri bilan munosabati asosida yuzaga keladigan, bevosita reallashadigan ma`nolar tadqiqotchi e`tiboridan chetda qolishi mumkin. Shuning uchun bu moya bilan bir qatorda «mazmundan shaklga» moyasi ham muhimdir. Aslida shakl va mazmun dialektikasining mohiyatiga muvofiq ravishda mazmuniy tahlil har ikki moyaga asoslanmog`i lozim. Hamonki, «mazmuniy tahlil gapning qanday anglanishi, qanday interpretatsiya qilinishi va uning tashqi olamdagi holatlar, jarayonlar, ob`ektlar bilan qanday aloqadorlikka ega ekanligini tushuntirishi kerak»³ ekan, bunda gapning ham mazmuni, ham shakli to`la hisobga olinmog`i shart.

Ergashgan qo`shma gap mazmunining va qismlar o`rtasidagi munosabatning turfalashuvida, bizningcha, ularni bog`lovchi grammatik shakllar tashuvchi ma`nolarning o`rni muhim. Zero, ularning ajratib bo`lmaydi, ular o`zaro bir-biri orqali yuzaga chiqadi. Jumladan:

[*-sa*] biriktiruvchi unsur sifatida quyidagi mazmunning ifodalanishiga sabab bo`ladi:

- a) payt: *Borsam, joyi gulzor ekan, ko`rsam o`zi jonon ekan.* (qo`shiqdan);
- b) to`siqsizlik: *Alisher Navoiy dunyodan o`tgan bo`lsa, uning asarlari tirik;*
- d) shart: *Sen bo`lmasang, gullar kulmaydi, sen bo`lmasang, bo`lmaydi bahor.*

[*-sa*] unsurining qo`shma gap tarkibida shart mazmunini ifodalashi bir xil emas. [*-sa*] shaklli ba zi gapda shart mazmuni kuchli bo`lsa, ba zilarida kuchsiz namoyon bo`ladi. Shart

¹ Махмудов Н. М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Докт. диссертация. Ташкент, 1984, С. 94—142.

² Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношения в конструкциях сложноподчиненного предложения узбекского литературного языка. АДД. Ташкент, 1989; Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап контрукцияларда семантик-сигнификатив парадигматика. Тошкент, 1989.

³ Бирвиш Н. Семантика. — В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. X. М.: Прогресс, 1981, С. 177.

ergash gapli qo'shma gapda shart ma'nosi o'ta kuchli bo'ladi: *Siz bo'lmasangiz, men yashay olmayman*. Boshqa ergash gapli qo'shma gaplarda shart ma'nosi boshqa ma'nolar «soya»sida juda kuchsizlanadi: 1. *Aytsam, ko'nmadi*. 2. *Chaqirsam, eshitmadi*. 3. *Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi*. 4. *Kim gapirsa, o'sha aybdor sanaladi*.

Shakl va mazmun munosabati nisbiy mutanosiblikda (ya'ni asimmetrik) bo'lganligi sababli qo'shma gapda polisemiya va omonimiya hodisalari kuzatiladi¹.

Jumladan, payt munosabatini ifodalashda quyidagicha sinonimiya hodisasini kuzatishimiz mumkin:

1. *O'qituvchi keldi, dars boshlandi*.
2. *O'qituvchi kelsa, dars boshlanadi*.
3. *O'qituvchi keldi-yu, dars boshlandi*.
4. *O'qituvchi keldi, shu zahoti dars boshlandi* va h.k.

Yoki shart shaklida bir nechta semantik munosabat ifodalanishi natijasida sintaktik polisemiya hodisasi kuzatilishi mumkin:

- a) payt ma'nosi — *Borsam, ukam yo'q ekan*;
- b) shart ma'nosi — *Ozodaxon kelsa, aytaman*;
- v) to'siqsizlik ma'nosi — *Aqidaxon kelsa ham, aytaman* va h.k.

Qo'shma gap tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra tasnifi bilan qo'shma gap qismlari orasidagi funktsional munosabatlarga ko'ra tasnifi o'zaro bog'liq. Tom ma'noda bu tasnif tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi bog'lovchining o'z ma'nolari bilan aloqador. Masalan, *agar* shart va payt ma'nolarini beradi.

Bog'lovchilar ma'nosi va gap semantikasi, juda ko'p holatda bog'lovchilarning o'zgarishi gaplararo o'zaro munosabatlarning qisman yoki butunlay buzilishiga olib keladi. Masalan, *O'qituvchi keldi, dars boshlandi* qo'shma gapi turli bog'lovchi bilan bog'langanda har xil munosabatni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan:

1. *O'qituvchi keldi, dars boshlandi*.
1. *O'qituvchi keldi, chunki dars boshlandi*.
3. *O'qituvchi keldi, shu sababli dars boshlandi*.
4. *O'qituvchi keldi, natijada dars boshlandi*.

Ergashgan qo'shma gap mazmuni sohasidagi eng muhim jihatlardan biri - havola bo'laklarning qo'shma gapda shakl va mazmun asimmetriyasini keltirib chiqarishidir.

Havola bo'laklar deganda, asosan, olmoshlar tushunilar ekan, shakl va mazmun mutanosibligi aynan mustaqil atash ma'nosiga ega bo'lmagan, boshqa turkumdagi so'zlar va gaplarga ishora qiladigan olmoshlar tufayli buzilayotganligi ma'lum bo'ladi.

¹ R. Sayfullayeva, Mengliyev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 408-bet.

Havola bo`lak qatnashayotgan qo`shma gaplarda bosh gapning mavqei borasida V.B.Kasevich yuqoridagi kabi ifodalarni “mohiyatan noto`liq (elliptik)ligiga ko`ra nafaqat bosh gap, balki umuman gap ham bo`la olmaydi”¹ deb baholaydi. V.G.Admoni fikricha, bunday bosh gaplar “grammatik jihatdan baribir hokim bo`lib qolaveradi”². O`zbek olimlaridan A.Nurmonov va boshqalar V.G.Admoni fikrini haqiqatga yaqin deb hisoblaydilar³. Darhaqiqat, havola bo`lakli bosh gaplar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- kimningdir nutqi yoki fikrini gapga olib kiradi;
- ergash gapdagi keng ifodaga ega bo`lgan mazmunga modal baho beradi;
- qo`shma gapning grammatik asosi vazifasini bajaradi;
- gapning ixchamlashuviga olib keladi.

Demak, havola bo`lak bosh gap tarkibida kelganda, gap shakli va mazmuni o`rtasida nomuvofiqlik kelib chiqadi, lekin bu bosh gapning funktsional mavqegini o`zgartirmaydi.

Havola bo`lak ham bosh gap, ham ergash gap tarkibida keladi. Bunda ergash gapda so`roq olmoshi bilan ifodalangan havola bo`lak, bosh gapda uning javobi bo`lgan ko`rsatish olmoshi qatnashadi: *kim – shu, u, o`sha; qaer – o`sha yer; qaysi – shu, o`sha, ana shu* kabi.

Deyksis gapning boshqa gap bilan mazmuniy aloqadorligini ta`minlar ekan, yuqoridagi holatda “aloqa yo`nalishi ergash gaplardan bosh gaplarga, ayni vaqtda bosh gaplardan ergash gaplarga tomon harakat qiladi”⁴. Bunday gaplar bog`lanishida ergash tarkibidagi *–sa* shart mayli qo`shimchasi ma`nosi kuchsizlanadi va nisbiy so`zlar yordamida bog`langan hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ma`lum bo`ladiki, havola bo`laklarni kiritish orqali xuddi fizikaning oltin qonuni kabi “shakldan yutib, mazmundan yutqazamiz”. Shu bilan birga qo`shimcha sub`ektiv munosabatlar ifodalash imkoniga ega bo`lamiz.

I.3. Ergashgan qo`shma gaplarda shakl va mazmun munosabati

Har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat butinlik bo`lishiga qaramay, yaqin yillargacha sintaktik tadqiqotlarda, asosan, gapning shakliy tomoniga e`tibor berilgan. Faqat ayrim o`rinlarda (masalan, gapning ifoda maqsadiga ko`ra turlarini belgilashda, ikkinchi darajali bo`laklarning ichki tasnifida) mazmun tomonga murojat qilingan.

Shakl va mazmun hamda ularning o`zaro aloqadorligi masalasi sintaksisning markaziy

¹ Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. – М.: Наука, 1988. – С.121.

² Адмони В.Г. Грамматической строй как система построения и общая теория грамматики. – Л.: Наука, 1988. – С.105.

³ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 219-235-бетлар.

⁴ Бердиалиев А. Координатив алоқа ва унинг хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1984, 3-сон. – 21-бет.

muammosi bo`lib, ularni tadqiq etishda buhar ikki kategoriya dialektal birlikda olib qaralishilozim. Shakliy va mazmuniy tahlil bir-biri bilan dialektal ravishda bog`langan. Sintaktik nazariya ana shu ikki tomonni, ya`ni ham shakliy, ham mazmuniy tomonni to`liq nazarda tutgandagina, u haqiqiy nazariya bo`la oladi. Chunki gapning shakliy va mazmuniy qurilishlari o`rtasidagi aloqa benihol murakkab va ziddiyatli bo`lib, juda ko`p hollarda bu qurilishlar bu qurilishlar bir-biri bilan aynan bir xil, teng muvofiqlik bo`ladi.

Har qanday til birligi kabi gap ham, xususan, qo`shma gap ham ikki tomonlama birlikdir, ya`ni ifoda tomoni va mazmun tomoniga ega. Uzoq vaqtlar mobaynida qo`shma gapning asosan ifoda va qisman mazmun tomonlari o`rganildi. Keyingi yillarda tilshunoslikda gapning mazmun tomoniga, «semantika» deb yuritiladigan jihatga e`tibor kuchaydi, mazmuniy (semantik) sintaksis, degan yo`nalish yuzaga keldi. A.Berdialievning tadqiqotlari ana shu yo`nalishdagi o`zbek tilshunosligidagi dastlabki ishlardandir. Uning doktorlik dissertatsiyasida ergash gapli qo`shma gaplardagi paradigmatic va sintagmatic xususiyatlar chuqur tadqiq etilgan. Ergashgan qo`shma gaplarning mazmuniy-signifikativ xususiyatlari, ulardagi sintaktik omonimiya, polisemiya, ko`p funktsionallik kabi bir qator muhim masalalar ishonarli tarzda hal qilingan. Shubhasiz, bu ish o`zbek tilshunosligidagi qo`shma gap nazariyasiga qo`shilgan muhim hissadir. Lekin ishning kirish qismida alohida ta`kidlanganiday, tadqiqotdagi asosiy metod tarkibiy-mazmuniy (mazmuniy-tarkibiy emas) bo`lib, u «shakldan mazmunga» qabilidagi tahlilga asoslangan¹. Aytish kerakki, tahlil faqat «shakldan mazmunga» qabilidagi moya asosida olib borilganda, bevosita lisoniy shakllarda o`z ifodasini topmaydigan, tildagi turli vositalarning bir-biri bilan munosabati asosida yuzaga keladigan, bavoita reallashadigan ma`nolar tadqiqotchi e`tiboridan chetda qolishi mumkin. Shuning uchun bu moya bilan bir qatorda «mazmundan shaklga» moyasi ham muhimdir. Aslida shakl va mazmun dialektikasining mohiyatiga muvofiq ravishda mazmuniy tahlil har ikki moyaga asoslanmog`i lozim. Hamonki, «mazmuniy tahlil gapning qanday anglanishi, qanday interpretatsiya qilinishi va uning tashqi olamdagi holatlar, jarayonlar, ob`ektlar bilan qanday aloqadorlikka ega ekanligini tushuntirishi kerak»² ekan, bunda gapning ham mazmuni, ham shakli to`la hisobga olinmog`i shart.

Aytish joizki, an`anaviy tilshunoslikda yaratilgan shakliy (formal) sintaksisga oid tadqiqotlarning ham ahamiyati benihoya kattadir. Qo`shma gap va uning tarkibiy xususiyatlariga bag`ishlangan ishlardagi ilmiy asoslangan g`oyalar bugungi tilshunoslikda qo`shma gap tabiati va uning mazmuniy-tarkibiy xususiyatlariga oid yangicha qarashlarning paydo bo`lishi uchun qonuniy ravishda mustahkam zamin hozirlaydi.

¹ Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношения в конструкциях сложножодчиненного предложения узбекского литературного языка. АДД. Ташкент, 1989; Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап контрукцияларда семантик-сигнификатив парадигматика. Тошкент, 1989.

² Бирвиш Н. Семантика. — В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. X. М.: Прогресс, 1981, С. 177.

Qo'shma gaplarni o'rganishning dastlabki bosqichlarida o'zbek tilidagi, umuman turkiyshunoslikdagi qo'shma gap nazariyalari, asosan, rus tilshunosligida shakllangan qo'shma gap nazariyalari qolipida yaratilgan. Aytish mumkinki, nafaqat qo'shma gap, balki tildagi juda ko'plab boshqa hodisalar talqinida ham ana shu yo'l, ya'ni rus tilshunosligidan nusxa ko'chirish bir qadar an'anaga aylangan¹. Jahon tilshunosligi tarixida bunday hol bir necha bor kuzatilgan, xususan, qadimgi lotin tilshunosligining yunon tilshunosligidan nusxa olish asosida shakllanganligi ma'lum². Tabiiyki, bunday yo'l til hodisalarining muayyan tilning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarini to'g'ri va xolis tushunishga imkon bermaydi.

Gapning sintaktik qurilishi juda chuqur va har taraflama o'rganilgan, buning ustiga sintaktik qurilish konkret ko'rish mumkin bo'lgan sathdir. Shuning uchun gap qurilishini belgilash biror bir qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin mazmuniy sintaksisdagi ikkinchi muhim jihat — mazmuniy sath ham bor, biroq gapning mazmun jihatini belgilash unchalik ham oson emas.

Voqealar o'rtasidagi munosabat va uning sintaktik ifodalanishini belgilashda mazkur munosabatni shakllantiruvchi mantiqiy-mazmuniy mexanizm va bu mexanizmning sintaktik tuzilishga nisbatlanishiga alohida e'tibor bermoq lozim.

Predikat va voqea ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat gapning mazmunini tashkil etadi. Voqea va uni ifodalovchi gap o'rtasidagi munosabat ikki yo'nalishda – ifoda tomondan ma'no tomonga va, aksincha, ma'no tomondan ifoda tomonga qarab o'rganiladi³.

Shakl va mazmunning dialektik birligi hamda bu dialektik birlikning namoyon bo'lish tabiati masalasi har qanday fanning ham eng markaziy masalalaridandir. Zero har qanday fanning, shu jumladan, tilshunoslikning har, bosh maqsadi hodisaning shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabatni hamda bu munosabatning o'ziga xos qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Shuning uchun ham tilshunoslikda «shakliy va mazmuniy tahlilning bir-biri bilan dialektik ravishda bog'langanligi»⁴ ko'p ta'kidlanadi. Chunki U.Veynreyx to'g'ri ko'rsatganiday, ma'no va uning ifodasi o'rtasidagi qat'iy moslik faqat ideallashtirilgan semiotik belgilargagina xosdir⁵. Tilda, esa, xususan, uning sintaktik sathida gapning shakliy va mazmuniy tarkiblari o'rtasidagi aloqa behad murakkab va ko'pincha ziddiyatli bo'lib, ular bir-birlari bilan to'liq muvofiq kelmaydi, ko'pincha mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik (asimetriya) mavjud bo'ladi⁶. Ana

¹ Махмудов Н.М. Қайта қуриш ва ўзбек морфологиясининг айрим масалалари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. 3-сон, 16—20-бетлар.

² Кондрашов Н. А. История лингвистических учений. М.: Просвещение, 1979, С. 18—19.

³ Бақоева Ҳ. Гапнинг мазмуний ва шаклий тузилиши.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 2-сон. – 28-бет.

⁴ Ветров А. А. Методологические проблемы современной лингвистики. М.: Высшая школа, 1973, С. 37.

⁵ Вейнрейх У. Опыт семантической теории. — В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. X. Лингвистическая семантика. М.: Прогресс, 1981, С. 55.

⁶ Кацнельсон С. Д. Типология языка и речевое мышление. Л.: Наука, 1972, С. 7, 15; Бархударов Л. С. К вопросу об отношении формальных и семантических моделей предложения.— В кн.: Теория языка. Англистика., Кельтология. М.: Наука., 1976, С. 12; Москальская О. И. Вопросы синтаксической семантики.— Вопросы языкознания, 1977, № 2, 48; Колшанский Г. В. Контекстная семантика. М.: Наука,

shunday nomuvofiqlik bo`lmasa, tilshunoslikning oldida muammoning o`zi ham bo`lmas edi¹. Lekin gaplarning aksariyatida ana shunday nomuvofiqlik bor. Shakl va mazmunning bunday ziddiyatli tabiati tilning o`ziga xos xususiyatidir. Muhimi shuki, til birliklarining shakli va mazmuni o`rtasidagi dialektik ziddiyat ularning uzviy birligiga to`sqinlik qilmaydigan emas, balki bu ziddiyat ana shunday birlik mavjud bo`lgandagina mumkin bo`ladi, bu tildagi qonuniy va ob`ektiv hodisadir².

O`zbek tilida sodda gaplardagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik (asimmetriya) muammosi o`rganilgan³. Ammo bu masala qo`shma gaplar doirasida alohida o`rganilgan emas. Rus tilida esa mazkur masala qo`shma gap materialida chuqur tadqiq etilgan⁴.

Aytish lozimki, sodda gaplar doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik, asosan, tildagi tejash tendentsiyasining namoyon bo`lishi sifatida "yuzaga kelsa⁵, qo`shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning zamini tildagi ortiqchalik tendentsiyasiga borib taqaladi.

Bu tendentsiya nutqiy aloqadagi muayyan zaruriyat bilan bog`liq bo`lib, zaruriyat sifatida so`zlovchining turli sub`ektiv maqsadi, voqeaning baholashi kabilarni ko`rsatish mumkin. So`zlovchi ayni maqsadi, bahosi va shu kabilarni alohida ta`kidlab ifodalash uchun predikativ tizimlarni tanlaydi, lekin bu tizimlar denotativ voqeani emas, mazkur maqsadga ko`ra modusni ifodalaydi. Buning natijasida nazariy jihatdan ikki denotativ voqea ifodachisi bo`lgan ikki (yoki undan ortiq) predikativ birlikdan iborat ergash gapli qo`shma gap faqat bir denotativ voqeani ifodalaydigan bo`lib qoladi, ya`ni faqat bir mazmuniy «yadro»ni o`z ichiga oladi. Bu, tayinki, mazmun va shakl jihatidan nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

T.A.Kolosova ayrim gaplarda ifoda planining mazmun planiga mos emasligini aytib, yozadi: «Bunday qo`shma gaplar, ikki predikativ birlikning mavjud bo`lishiga qaramasdan, bir situatsiyani ifoda qiladi. Jumlaning mazmuni aslida ergash gap qismida mujassamlashgan, bosh gap qismi esa hamisha oldin kelib, sezilarli darajada mazmunsizlashgan, u axborot berish vositasi emas, balki ergash gapdagi axborotning o`ziga xos aktuallashtiruvchisidir». Tadqiqotchi ana shuni hisobga olib, bunday gaplarning ifoda planiga ko`ra qo`shma, mazmun planiga ko`ra

1980, С. 120—121; Махмудов Н. М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Докт. диссертация. Ташкент, 1984, С. 6; Колосова Т. А. Русские сложные предложения асимметричной структуры. Воронеж: Изд-во Воронежского университета. 1980, С. 30.

¹ Кузнецов П. И. Является ли строй тюрских языков изначально именованным? — Вопросы языкознания, 1980, № 6, С. 52.

² Колшанский Г. В. Проблема противоречий в структуре языке. — В кн.: Энгельс и языкознание. М.: Наука, 1972, С. 40—56;

³ Махмудов Н. М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Докт. диссертация. Ташкент, 1984; Ўша муаллиф. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. Тошкент, Ўқитувчи, 1984.

⁴ Колосова Т. А. Сложные предложения асимметричной, структуры. Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1980.

⁵ Махмудов Н. М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка, Докт. диссертация., Ташкент, 1984, С. 13.

esa sodda ekanligini ta'kidlaydi¹.

O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarda asosiy «axborotni aktuallashtiruvchi» sifatida, ya'ni modus ifodachisi sifatida bosh gap ham, ergash gap ham, aytib o'tilganiday, kelaverishi mumkin.

Qiyos: Gap shundaki, men yakkachinor qishlog'iga ishga jo'nadim.(O'.Umarbekov)
Hozir o'sha yillarni eslasam, institutda qolganimga xursand bo'laman. (O'.Umarbekov).

Birinchi gapda modus bosh gap orqali, ikkinchi gapda esa modus ergash gap orqali ifodalangan. Lekin bari bir har ikki gapda ham mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik mavjud. Ergash gapda ifodalangan mazmunning tabiatiga ko'ra mazkur shakllar bilan bog'liq «shart» va «payt» ma'nolari neytrallashadi. Bu hol, albatta, tushunarli, chunki mazkur predikatlar denotativ voqea ifodasida ishtirok etmagan.

Shunisi ham tabiiyki, modus ifodalovchi tizim ixchamlashishga moyil bo'ladi. Buni yaxlit gapda denotativ voqeaga qaraganda modusning nomuhimligi bilan izohlash mumkin. Ana shu nomuhimlik, aslida, tegishli so'z shakllaridagi ma'nolarning («shart», «payt» kabi) kuchsizlanishiga yoki neytrallashishiga olib keladi. Bu neytrallashuv ko'pgina ergash gapli qo'shma gaplarda juda aniq bo'ladi. *Men senga aytsam, odamlarga yaxshilik qil, Keyingi masalaga kelsak, asosiy ma'ruzani kasaba uyushmasining raisi qiladi. Gapning ochig'ini aytganda, ishga jiddiy kirishmoq shart. Men o'ylaymanki, u bugun keladi* kabi ergash gapli qo'shma gaplarda ana shunday neytrallashuvni ko'rish mumkin. Bu neytrallashuvga va gapning tegishli qismlarida ifodalangan modusning mantiqiy-mazmuniy tabiatiga ko'ra bunday shaklan qo'shma gaplar haqli ravishda kirish tizimli sodda gaplar sifatida baholanadi². A.G'ulomov kirish tizimlarning asosiy gapdagi fikrga bog'liq bo'lgan, shu haqdagi qo'shimcha mulohazalarni ifodalashini ta'kidlaydi. Uningcha, «bu mazmun ottenkalari juda xilma-xil: so'zlovchining aytilayotgan fikrga sub'ektiv munosabatini, shu fikrga bog'liq holda tug'ilgan emotsiyalarni, fikrning umumiy bahosini va shu kabi holatlarni bildiradi»³. Bu ma'nolar biz modus tavsifi bilan bog'liq holda aytgan ma'nolar bilan mos keladi. Demak, kirish gap, kirish so'z, kirish tizimlarning semantikasi bevosita modusdan iborat. Modus ifodalangan va predikatlaridagi tegishli shakllar ma'nosi aniq neytrallashgan aksar ergash gaplarni kirish gaplar sifatida baholash bunday shaklan qo'shma gaplardagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlikni bartaraf etadi. Chunki bunday holatdagi ergash gapning gapligi inkor etilmagan holda u qo'shma gapning sintaktik tarkibidan tashqariga chiqariladi. Zero, «kirish konstruktsiyalar so'zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini bildiradigan, lekin gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmagan

¹ Колосова Т. А. Ўша асар, 32—35-бетлар.

² Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри, Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 155-бет.

³ Ўша асар, 156-бет.

elementlardir»¹.

Yuqorida aytib o`tilganidai, modus ifodalovchi gaplar mohiyatan shakliy jihatdan ixchamlashishga moyil bo`ladi. Bu modus sifatidagi ma`noni nutqiy aloqa talabiga muvofiq ta`kidlash darajasining katta yoki kichikligi bilan bog`liq. Ana shu darajaga mutanosib ravishda modus ifodalangan gapni predikativ tizim, hatto bir so`zgacha ixchamlashtirish mumkin. Bu munosabat bilan A. G`ulomov shunday yozadi: «*Ma`lumki, bari bir, anglashiladiki* kabi kirish so`zlarning bir qismi aslida bir gap bo`lgan. Bu gap har jihatdan o`zgarib, kuchsizlanib, kirish so`zga aylangan. Masalan, *baribir* (bari bir: ega-kesim). Bularning ba`zilarida *-ki* bog`lovchisining qo`llanishi ham shuni ko`rsatadi: *Ma`lumki, paxta terimi sentyabr oyidan boshlanadi* (aslida: *ma`lumki* — bosh gap, qolgani ega ergash gap: *Paxta terimining sentyabr oyidan boshlanishi ma`lum narsa*). *O`ylaymanki, bugun kelar* (aslida *o`ylaymanki* bosh gap, qolgani to`ldiruvchi ergash gap: *u bugun keladi*, — *deb o`ylayman*, Ko`chirma gap bilan muallif gapining munosabatidan bosh gap bilan to`ldiruvchi ergash gapning munosabati anglashilib turadi»².

Agar nutqiy aloqada modusni gap shaklida ifodalab alohida ta`kidlashga zarurat bo`lmasa, modusni ifodalovchi gap ixchamlanib boraverishi mumkin. Shuning uchun ham A.G`ulomovning yuqorida keltirilgan fikri asoslidir. Masalan:

Agar men sizga to`g`risini aytsam, siz bu kitobni o`qimagansiz.

Bu gapda *-sa* ning ma`nosi neytrallashgan emas, u to`la «shart» ma`nosini ifoda etgan, ya`ni qo`shma gapning har ikki qismida ham denotativ voqea ifodalangan, modus alohida gap bilan ifodalangan emas. Yaxlit qo`shma gapning mazmuni ikki denotativ voqea o`rtasidagi shart munosabatidan iborat, ya`ni birinchi denotativ voqea (ergash gapda) ning amalga oshishi ikkinchi denotativ voqea (bosh gapda)ni keltirib chiqaradi. Gapning mazmuniy va shakliy jihatlari bir-biriga muvofiq keladi. Endi mana bu gapni olib ko`raylik: *Agar men sizga to`g`risini aytsam, siz bu kitobni o`qimagansiz.* Bu gapning ergash qismida modus ifodalangan va predikat ifodasidagi *-sa* (*aytsam*)ning «shart» ma`nosi neytrallashgan; bosh gapda: *esa* (*siz bu yerlarni ko`rmagansiz*) denotativ voqea ifodalangan. Shu ma`noda ergash gap mazmunan kirish gapga yaqinlashadi, bog`lovchi vosita *-sa* ham mazmun, ham grammatik jihatdan kuchsizlangan. Modusni ifodalovchi gapning ixchamlasha olish xususiyatiga ko`ra mazkur gapda quyidagicha shakliy ko`chim (transformatsiya)ni amalga oshirish mumkin: *Agar men sizga to`g`risini aytsam, siz bu kitobni o`qimagansiz* → *Mei sizga to`g`risini aytsam, siz bu kitobni o`qimagansiz* → *Sizga, to`g`risini aytsam, siz bu kitobni o`qimagansiz* → *To`g`risini aytsam, siz bu kitobni o`qimagansiz* → *To`g`risi, siz bu kitobni o`qimagansiz.* Ko`rinadiki, denotativ voqea ifodasi

¹ Ўша асар, 155-бет.

² Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 155-156-бетлар.

bo`lgan gap bilan qarshilantirilgan va mazmuni modusdan iborat bo`lgan. *Agar men sizga to`g`risini aytsam* gapi mazmunan *to`g`risi* shaklidagi kirish so`z bilan teng.

Umuman, ergash gapli qo`shma gaplarning tarkibida alohida gap orqali ifodalangan modus mazmuni mavjud bo`lgan barcha turlari uchun mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik xosdir. Ayni choqda bunday ergash gapli qo`shma gaplardagi modus ifodasining tabiatiga ko`ra ularda hamisha kirish tizimli gaplarga aylanish imkoniyati mavjud. Bu mazmuniy-sintaktik jarayon, ya`ni ergash gapli qo`shma gaplarning kirish tizimli gaplarga shakliy ko`chishi benihoya murakkab va o`ziga xos jiddiy jarayon bo`lib, unda bir qator mantiqiy lisoniy qonuniyatlar amal qiladi. Bunday qonuniyatlarni to`lig`icha ochib berish va tasvirlash alohida ish uchun mavzu bo`la oladi¹.

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 362 б.

II BOB. ERGASHGAN QO`SHMA GAPLARDAGI OLMOSH ISHTIROK ETGAN GAPLARNING MAZMUNYIY TUZILISHI

II.1. Havola bo`laklar va ularning gap mazmunidagi o`rni

Voqealar o`rtasidagi munosabat ergash gapli qo`shma gaplarda aniq va to`liq ifodalanadi. Bu munosabatning ifodalanishi va belgilanishida bog`lovchi va bog`lovchi vositalarning o`rni benihoya muhimdir¹. Ergashtiruvchi bog`lovchilar yoki shunday vositalar ergash gapning mazmunini asosan tayin etishi mumkin². Bu bog`lovchi vositalar o`z mazmuniga ko`ra muayyan munosabatga kirishayotgan voqealarni faqat bog`lash uchungina xizmat qilmaydi, balki bunga qo`shimcha ravishda yana turli modal ma`nolar, so`zlovchining sub`ektiv munosabatlarining ifodalanishi uchun ham ko`mak beradi. Bog`lovchi vositalarning qo`shma gapdagi ahamiyati haqida gapirib, M.I.Chemisina shunday deydi: «Qo`shma gap tarkibidagi aloqa ko`rsatkichini o`z qimmatiga ko`ra sodda gapdagi kesim bilan qiyoslash mumkin: u qo`shma gapning tarkibiy cho`qqisidir»³. Ergash gapli qo`shma gaplarning mazmuniy sintaksisida, demak, bunday bog`lovchi va bog`lovchi vositalarning mazmuni, o`rni kabi masalalarga alohida e`tibor bermoq lozim.

So`zlovchi tomonidan fikr ifodasi uchun ayni ergash gapli qo`shma gap (yoki umuman qo`shma gap) shaklining tanlanishi mutlaqo tasodifiy bo`lmaydi. Lisoniy texnika (lingvotexnika) nuqtai nazaridan, albatta, sodda gap o`ng`ayroq. Lekin so`zlovchi fikrni ixcham va ayni chog`da barcha ob`ektiv va sub`ektiv jihatlari bilan ifodalashga zaruriyat sezganda qo`shma gapga murojaat qiladi. Bir necha voqea va ular o`rtasidagi xilma-xil mantiqiy munosabatlar (maqsad, sabab-oqibat, shart, payt kabi)ni ifodalash uchun axborot beruvchi tomonidan jumlaning qo`shma gap tarzida tuzilishi, M.V.Lyapon ta`biri bilan aytganda, «xulosa chiqarish operatsiyasiga o`xshaydi». Bunda axborot beruvchi axborotni maxsus mantiqiy ishlovdan o`tkazadi, ya`ni voqealar o`rtasidagi munosabatni baholaydi, aniqlaydi, unga o`z nuqtai nazarini bildiradi va h. k. o.⁴, Bu mantiqiy operatsiyalarning natijasi sifatida shakllangan qo`shma gapda ayni mazmunlar muayyan darajada aks etadi.

Bu o`rinda endi gap ma`nosidagi ikki xil tabiatli mazmuni farqlash kerak bo`ladi. «Mazmuniy sintaksisning taraqqiyoti munosabati bilan,—deb yozadi V.A.Beloshapkova, — juda

¹ Колосова Т. А. Русские сложные предложения ассиметричной структуры. Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1980, С. 22—23; Мартынов В. В. Категории языка. Семиологический аспект. М.: Наука, 1982, С. 60.

² Гулыга Е. В. О семантике предложения—В кн.: Теоретические проблемы синтаксиса современных индоевропейских языков. Л.: Наука, 1975, С. 27; Гулыга Е. В., Шендельс Е. И. О компонентном анализе значимых единиц языка. — В кн.: Принципы и методы семантических исследований. М.: Наука, 1976, С. 309.

³ Черемисина М. И. Сложное предложение как знак языка. — В кн.: Синтаксис алтайских и европейских языков. Новосибирск: Наука, 1981, С. 5.

⁴ Ляпон М. В. Смысловая структура сложного предложения и текст. К типологии внутритекстовых отношений. М.: Наука, 1986, С. 9.

ko`p tilshunoslar tomonidan turli vaqtlarda aytilgan gap ma`nosida bir-biridan printsiplial farqlanuvchi ikki tur mazmun — borliqni aks ettiruvchi ob`ektiv mazmun va fikrlovchining ana shu borliqqa bo`lgan munosabatini aks ettiruvchi sub`ektiv mazmun qo`shilgan, degan fikr alohida dolzarblik kasb etdi»¹. Gap ma`nosidagi bunday mazmun turlari dastlab shveysar tilshunosi Sh.Balli tomonidan farqlangan. U ob`ektiv mazmunni «diktum», sub`ektiv mazmunni esa «modus» («modallik» atamasi bilan aloqador) deb nomlagan². Sh.Balli atamaları bilan aytiladigan bo`lsa, muayyan bir diktum turli moduslar bilan birga ifodalanishi mumkin: aniq ishonch, istak, gumon, ikkilanish kabi.

Qo`shma gaplarda ayrim hollarda modus va diktum alohida-alohida, ya`ni qo`shma gapning bir qismida modus, ikkinchi qismida diktum ifodalanishi mumkin³.

Masalan, *Men o`ylaymanki, do`stim bugun kelmaydi* qo`shma gapning bosh gap qismi (*Men o`ylaymanki*)da modus, ergash gap qismi (*do`stim bugun kelmaydi*) da esa diktum ifodalangan.

Ma`lumki, *modus, modallik* so`zlari lotin tilida «usul» degan ma`noni bildiradi. Gapning diktumi yoki ob`ektiv mazmuni biz qo`llayotgan atama bo`yicha «denotativ voqea»ga to`g`ri keladi. Denotativ voqea talqinida u qadar har xillik yo`q. Ammo modus talqinida birmuncha har xillik bor. M.I.Cheremisina va T.A.Kolosovalar ta`rificha, «diktum referenti nutqda ifodalanayotgan reallikdagi muayyan vaziyatdan iborat bo`lgan asosiy axborot sifatida tushuniladi», modus esa «diktum mavqeidagi voqeaning modallik (ya`ni voqeaning ehtimolligi va voqea haqida axborotning ishonchlilik darajasi) yoki ayni voqea haqidagi tasavvurni ruhiy (psixik) qayta ishlash tabiati aspektidagi ifodaga ega bo`lgan (verbal) sub`ektiv talqinidir»⁴. Boshqacha qilib aytganda, modus denotativ voqeaning modal yoki sub`ektiv talqini demakdir. Ergash gapli qo`shma gaplarda u quyidagi tizimlarda ifodalanishi mumkin: *Men bilamanki,....., Shunisi ma`qulki..., Men ishonamanki,....., Men o`ylaymanki,....., Men sizga to`g`risini aytsam,...* va h. k. *Keyinchalik ma`lum bo`ldiki, bular... bir necha oydan beri frontga jo`nash haqida buyruq, kutib yotar ekan* (A. Qahhor). *Biz bilamizki, har bir yangilik qarshilikka uchraydi* (A. Qahhor). *Eng ahamiyatlisi shundaki, qandaydir sirli bir kuch bizni shu sodda va to`g`ri so`z ishchini sevib qolishga majbur etadi* (F.Musajonov). Ko`rinib turibdiki, har uchala qo`shma gapda ham bosh gaplar modusni, ya`ni ergash gaplarda ifodalangan voqealarning sub`ektiv talqinini ifoda etgan. Rus tilshunosi N.S.Pospelov shunday ta`kidlaydi: Bunday qo`shma

¹ Современный русский язык. Под ред. В. А. Белошапковой. М.: Высшая школа, 1981, С. 475.

² Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. М.: 1955, С. 43—48; Яна қаранг: Гак В. Г. О категориях модуса предложения — В сб.: Предложение и текст в семантическом аспекте. Калинин, 1978, С. 20.

³ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. М.: 1955, С. 46—47; Ширяев Е. Н. Бессоюзное,-сложнее предложение в современном русском языке. М.: Наука, 1986, С. 81.

⁴ Черемисина М. И., Колосова Т. А. Очерки по теории сложного предложения. Новосибирск.: Наука, 1987, С. 34—35.

gaplarning bosh gap qismi «alohida axborotni ifodalamaydi, balki faqat ergash gapning modallik jihatdan shakllanishi uchun vosita bo`lib xizmat qiladi, bunda u o`z leksik ma`nosi bilan ergash qismdagi mazmunga so`zlovchining u yoki bu tarzda munosabatini ifodalaydi»¹. O`zbek tilidagi ergash gapli qo`shma gaplarda modusning ifodachisi hamisha bosh gap bo`lmaydi. O`zbek tilida modus ergash gap orqali ham ifodalanaveradi: *O`tgan o`sha azobli kunim, hozir o`ylab qarasam, hayotimning eng noyob damlari bo`lgan ekan* (A.Muxtor). *Men senga aytsam, hali birov o`z yurtidan ketib ro`shnolik ko`rganmas* (Yo.Yakvalxo`jaev). *Bir so`z bilan aytganda, u ota bilai onaning jamiki xush fazilatlarini o`zida mujassam etgandi* (Yo.Yakvalxo`jaev). Bu gaplardagi ergash gaplar bosh gaplardagi denotativ voqeaning modal talqini ifodasi uchun xizmat qilgan. Demak, ergash gapli qo`shma gaplarning bosh va ergash qismlarida o`rni bilan modus, o`rni bilan denotativ voqea — ob`ektiv mazmun ifodalanaverishi mumkin.

Shuni ham ta`kidlamoq joizki, modus tushunchasi o`z ichiga bir qator ma`nolarni oladi, xususan, «baho», «ruhiy holat», «taxmin» va boshqalar². Shuning uchun ham qo`shma gaplarda modus ifodalanganda, modus ifodachisi bo`lgan gapning predikati sifatida turli so`zlar ishtirok etishi mumkin. Xususan: *o`ylamoq, sezmoq bilmoq, qo`rqmoq, xursand bo`lmoq, ma`qullamoq, istamoq, aytmoq, ko`rmoq, yaxshi, yomon, ma`qul, muhim, to`g`ri* (ba`zan, fe`l bo`lmagan ayni so`zlar sub`ektini ifodalab kelishi ham mumkin) va h. k.

Ergash gapli qo`shma gaplarda modus va denotativ voqea (diktum)ning alohida-alohida ifodalanishi doimiy emas. Ergash gapli qo`shma gaplarda ularning mantiqiy-mazmuniy va sintaktik mohiyatiga mutlaqo muvofiq ravishda aksar hollarda modus alohida gap sifatida emas, balki turli grammatik shakllar orqali ifodalanib, bevosita ikki (yoki undan ortiq) denotativ voqea — diktum ifodalanishi mumkin. Ana shunga ko`ra ergash gapli qo`shma gaplarni ikki katta guruhga ajratish mumkin, ya`ni: 1) ikki denotativ voqea (yoki undan ortiq) ifodalangan va 2) bir denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo`shma gaplar. Shunga yaqin nuqtai nazarni S.A.Shuvalovning tadqiqotida ham ko`rish mumkin³. Bu o`rinda V.V.Martinovning ayni masalaga yondashuvi diqqatga sazovor. U ikki diktum — denotativ voqea o`rtasidagi munosabat va shunday munosabat ifodalangan qo`shma gaplarni hamda modus bilan bir diktum — denotativ voqea o`rtasidagi munosabat va shunday munosabat ifodalangan qo`shma gaplarni farqlaydi. Bunda u ta`kidlaydiki, birinchi tip qo`shma gaplar real, tildan tashqaridagi borliqning ikki (yoki undan ortiq) voqeasi bilan aloqador bo`lsa, ikkinchi tip qo`shma gaplarda bir voqea va ayni voqea haqidagi xabar, ya`ni g`ayrilisoniy va lisoniy borliq voqealari o`rtasidagi aloqadorlik

¹ Поспедов Н. С. Развитие предложений одночленной структуры. — В кн.: Изменения в строе сложноподчиненного предложения в русском литературном языке XIX в. М.: Наука, 1964, С. 69.

² Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. М.: Наука, 1988, С. 109—132.

³ Шувалова С. А. Смысловые отношения в сложном предложении и способы их выражения М.: Изд-во МГУ, 1990, С. 16.

ifodalanadi. Ana shunga ko`ra V.V.Martinov qo`shma gaplarni ikki guruhga ajratadi: 1) lisoniy (yazo`kovoy) va 2) metalisoniy (metayazo`kovoy)¹.

Tashqi olam hodisalari, ular o`rtasidagi munosabat, so`zlovchining ayni hodisalarga bo`lgan nuqtai nazari (keng ma`noda) kabi masalalar barcha til vakillari uchun mushtarakdir. Lekin bu masalalarning tildagi namoyon bo`lishi bilan aloqador muammolar, shubhasizki, har bir til uchun anchayin xususiylik kasb qiladi. Shuning uchun ham ergash gapli qo`shma gaplarning mazmuniy sintaksisi o`rganilar ekan, mazkur mazmunlarning ta`kidlanayotgan mantiqiy asoslarini, o`ziga xos tabiatini chuqur idrok qilish, ayni mantiqiy asoslarning til sathidagi nisbatlanishi bilan bog`liq muammolariga e`tiborni qaratish lozim bo`ladi.

Ta`kidlamoq lozimki, modus «voqea» bir qo`shma gap doirasida diktumga — denotativ voqeaqa qarshilantirilgandagina modus «voqea» bo`la oladi. Muayyan denotativ voqea bilan munosabatdan tashqarida modus «voqea» mavjud emas, agar shunday munosabatdan tashqarida bo`lsa, u denotativ voqeaqa (diktumga) aylanadi². Masalan, *Men ishonamanki, sen bu ishni uddalaysan* gapidagi bosh gap (*Men ishonamanki*) modus «voqea»ni ifodalaydi, keyingi gap esa denotativ voqea ifodachisidir. Agar ana shu denotativ voqea bilan mazkur modus munosabatda bo`lmas ekan, bu modus denotativ voqeaqa aylanadi. Masalan, *Men kitobga ishonaman* — gapida bir denotativ voqea ifodalangan.

«Modusning farqlovchi belgisi diktumdan ajratib olinganda unda voqea haqidagi tasavvurning to`liq bo`lmasligidir»³. Shuning uchun ham qo`shma gapning denotativ voqea — diktum ifodachisi bo`lgan ergash gap qismini keltirish ham mantiqan, ham mazmunan, ham shaklan (sintaktik jihatdan) zarurat.

Modus ergash gaplarda ham ko`pincha ifodalanadi: *Men senga aytsam, odamlarga yaxshilik qil, keyingi masalaga kelsak, asosiy ma`ruzani kasaba uyushmasining raisi qila qoladi. Gapning ochig`ini aytganda, ishga jiddiy kirishmoq shart kabi*).

Bunday mazmuniy-funksional nomuvofiqlik bir denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo`shma gaplarning barchasi uchun ham xos emas. Denotativ voqea bosh gapda, modus esa ergash gapda ifodalangan qo`shma gaplarda qismlararo mazmuniy-funksional nomuvofiqlik yuzaga kelmaydi. Bunday gaplarda bosh gap o`z mohiyatiga ko`ra ham mazmunan, ham grammatik jihatdan-hukmron bo`ladi, ergash gap esa modus «voqea»ni ifoda etib, ham mazmunan «kambag`al», ham grammatik jihatdan tobe bo`ladi. Masalan, *Gapning ochig`ini aytsam, harakatingni tezroq qil* gapining ergash gap (*gapning ochig`ini aytsam*) qismida modus ifodalangan, demak, u mazmunan ham, grammatik ham tobe; bosh gap (*harakatingni tezroq qil*)

¹ Мартынов В. В. Категории языка. Семиологический аспект. М.: Наука, 1982, С. 60—63.

² Черемисина М. И. Сложное предложение как знак языка. — В кн. Синтаксис алтайских и европейских языков. Новосибирск: Наука, 1981, С. 37.

³ Черемисина М. И., Колосова Т. А. Очерки по теории сложного предложения. Новосибирск: Наука, 1987, С. 37.

qismida esa denotativ voqea ifodalangan, demak, u mazmunan ham, grammatik ham hokim. Bu qo`shma gapdagi qismlar o`rtasida mazmuniy-funksional nomuvofiqlik yo`q.

Ammo bir denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo`shma gaplarning barchasi uchun boshqa bir nomuvofiqlik (asimetriya) xosdir. Bu nomuvofiqlik ergash gapli qo`shma gaplarning mazmuniyati bilan sintaktik shakli o`rtasida yuzaga keladi.

Bizningcha, bosh gaplarning o`zini ham ikki turga ajratib olish maqsadga muvofiqqa o`xshaydi: 1) havola bo`lakli bosh gaplar va 2) havola bo`laksiz bosh gaplar. «Havola bo`lak» deganda umumiy tilshunoslikdagi «deyxis belgilar»ni nazarda tutamiz. Deyxis belgilarning mohiyati shundan iboratki, ular mazmuni — voqea, belgi narsalarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi, shunga ko`ra ularni mazmunan kuchsiz, bo`sh so`zlar sifatida qarash mumkin¹. O`zbek tilidagi olmosh va boshqa nisbiy so`zlar ana shunday deyxis belgilar bo`lib, ular qo`shma gaplarda havola bo`laklar sifatida ishtirok etishi mumkin.

Deyxis (yunoncha “deixis” - ko`rsatkich) muomala (nutq) jarayonida uning moddiy manbasi – ishtirokchi, makon va zamonni ko`rsata oladigan til birliklari va boshqa belgilardan foydalanish tushuniladi

Shunga ko`ra deyxisning uch turi – shaxsiy (personal), makon va zamon deyxislari ajratiladi. Deyxis lisoniy va nolisoniy ko`rinishda bo`lib, gaplarda olmoshlar va nisbiy so`zlar shaklida namoyon bo`ladi. Deyxis belgilarning mohiyati shundan iboratki, ular mazmuni — voqea, belgi, narsalarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi, shunga ko`ra ularga mazmunan kuchsiz, bo`sh so`zlar sifatida qarash mumkin².

Deyxis qo`shma gaplar sintaksisida “havola bo`lak” termini bilan ishlatiladi.

Havola bo`laklar asosan ergashgan qo`shma gaplarda ishlatiladi. Havola bo`laklar o`zi qatnashgan gap mazmunini kuchsizlantiradi va gapni boshqa gap bilan mazmuniy, grammatik jihatdan bog`liqligini kuchaytiradi.

Havola bosh gap tarkibida yoki ergashgan qo`shma gapning har ikki qismi tarkibida qo`llanishi mumkin:

*Aybingiz **shuki**, juda ko`ngilchansiz.* (Z. Saidnosirova)

***Kim** harakat qilsa, **u** baraka topadi.* (Maqol)

Agar havola bo`lak faqat bosh gapning tarkibidagina qo`llansa, bosh gap diktum emas, modusni ifodalash vazifasini bajara boshlaydi, ya`ni ergash gapdan ajratib olinganda voqea haqida to`liq tasavvur bera olmaydi, denotativ voqea haqida sub`ektiv munosabatni bildiradi:

Muyassar biladiki, ... (nimani?). Men ishonamanki, ... (nimaga?)

¹ Вейнрейх У. О семантической структуре языка. — В кн.: Новое в лингвистике. Вып. V. М.: Прогресс, 1970, С. 177—183.

² Вейнрих У. О семантической структуре языка. — В. кн. Новое в лингвистике. Вып. V. — Москва: Прогресс, 1970. — с. 177-183.

Bunday bosh gaplar shaklan ixchamlashishga moyil bo`ladi: *Ishonamanki, ... Ma`lumki, ...* Natijada bunday bosh gaplar kirish so`zarga shaklan teng kelib qolishi mumkin.

Ergash gapning nomlanishi bosh gapdagi havola bo`lakning sintaktik vazifasiga bog`liq bo`lib qoladi:

	<u>u</u> baxtli bo`ladi	Ega ergash gap
	<u>uning</u> yo`li ochiq.	Aniqlovchi ergash gap
<u>Kim</u> g`alaba qozonsa,	<u>unga</u> yarim davlatimni beraman.	To`ldiruvchi ergash gap
	<u>o`shanikida</u> bayram qilamiz.	Hol (o`rin) ergash gap
	Saltanatimning egasi – <u>shu</u> .	Kesim ergash gap

Demak, ergashgan qo`shma gaplarda deysis belgilar:

- gapning mazmuniy nomustaqilligini ifodalaydi;
- uning boshqa gap bilan uzviy grammatik va mazmuniy aloqadorligini bildiradi;
- ergashgan qo`shma gapda shakl-mazmun nomutanosibligini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo`lsak, deysis belgilar va ularning ergashgan gaplardagi o`rni ham formal, ham mazmuniy sintaksis uchun qiziqarlidir.

Havola bo`lakning mavjud yoki mavjud emasligi bilan bog`liq holatda bosh gap ham, ergash gap ham muayyan mazmuniy va sintaktik xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Masalan, *Tolib aka shuni bilib qo`ysinki, Akrom Saidning ham ocherki jurnalda chiqmaydi* (F.Musajonov). Gapning bosh qismida *shuni*, havola bo`lagi bor, u to`ldiruvchi vazifasida, ikkinchi gapda *Akrom Saidning ham ocherki jurnalda chiqmaydi* shaklidagi bosh gap tarkibida havola bo`lak yo`q. Avvalo havola bo`lakning tabiatiga ko`ra ayni bosh gapdagi to`ldiruvchi sintaktik o`rni faqat shaklan berkitilgan, chunki havola bo`lak mazmunan bo`sh, shuning uchun bosh gap sintaktik to`liq bo`lsa ham, mazmunan noto`liq.

Havola bo`lakli bosh gapli sinsemantik, ya`ni ergash gaplardan ajratib olinganda, mustaqil qo`llana olmaydi, mazmunan chala bo`lib qoladi. Havola bo`laksiz bosh gaplar esa avtosemantik, ya`ni ergash gaplardan ajratib olinganda ham mazmunan nisbiy mustaqilligini saqlay oladi, mazmunan chala, noto`liq bo`lib qolmaydi.

Ergash gapli qo`shma gaplarning ayrimlarida bosh gapdagi havola bo`lakning o`zi bilan chegaralanilmaydi. Bu havola bo`lak bilan muvofiq keluvchi boshqa bir havola bo`lak ergash gap tarkibida ham mavjud bo`ladi. Bosh va ergash gaplardagi bu havola bo`laklar savol-javob tarzidagi doimiy qarshilantirish (oppozitsiya)ni tashkil etadi: *kim —u, kim — o`sha, kimlar— ular, — nima—o`sha, nima—shu, nima—u, ancha—shuncha, qanday—shunday, nechta—shuncha, qanchalik—shunchalik, qaer — shu yer, qay tomon — shu tomon* kabi. Ana shu havola bo`laklardagi qarshilantirishga ko`ra bosh va ergash gaplar o`rtasidagi aloqa tabiatida ham o`ziga

xoslik yuzaga keladi. Masalan: *Kim mehnat qilsa, u rohat ko`radi. Qaerda intizom bo`lsa, u yerda muvaffaqiyat bo`ladi.* Bu gaplardagi tobelilik aloqasi boshqa ergash gapli qo`shma gaplardagidan farqli o`laroq, ikki tomonlamadir, ya`ni «aloqa yo`nalishi ergash gaplardan bosh gaplarga, ayni vaqtda bosh gaplardan ergash gaplar tomon harakat qiladi»¹. Tobe aloqaning o`ziga xos bu turi turli tilshunoslar tomonidan turlicha nomlangan². Ular orasida dastlab A.M.Peshkovskiy tomonidan tavsiya etilgan «vzaimnoe podchinenie», ya`ni «o`zaro tobelanish» atamasi³ hodisa mohiyatini aniq aks ettiradi.

O`zaro tobelanishli ergash gapli qo`shma gaplarda ergash gap oldin, bosh gap esa keyin keladi. Ergash gap tarkibidagi havola bo`lak umumlashgan so`roq ma`nosida (*kim, nima, qancha, qanday, qaer* kabi) bosh gap tarkibidagi havola bo`lak esa shu so`roqqa umumiy javob ma`nosida (*u, o`sha, shuncha, shunday, o`sha yer* kabi) bo`ladi⁴. Bunda ergash gapning predikati shart ergash gapning predikati kabi shart maylidagi fe`l (yoki ba`zan shart ma`nosiga ega bo`lgan boshqa fe`l: masalan, *-r* ekan) orqali ifodalangan bo`ladi, lekin undagi shart ma`nosi kuchsizlangan bo`lib, bu shakl mazkur havola bo`laklar bilan birgalikda bosh va ergash gaplarni bog`lovchi vosita vazifasini bajaradi. Ayni havola bo`laklar shart ma`nosini xiralashtiradi, shuning uchun ham o`zaro tobelanishli, demak, har ikki qismida ham havola bo`laklar mavjud bo`lgan ergash gapli qo`shma gaplar sirasida shart ergash gapli qo`shma gaplar yo`q. Agar imkon bor o`rinlarda havola bo`laklar tushirib qoldirilsa, gapdagi shart mazmuni yaqqol yuzaga chiqadi va gap shart ergash gapli qo`shma gapga aylanadi. Masalan:

Kim mehnat qilsa, u rohat ko`radi (ega ergash gap). *Mehnat qilsang, rohat ko`rasan* (shart ergash gap). *Qaerda intizom bo`lsa, u yerda muvaffaqiyat bo`ladi* (o`rin ergash gap). *Intizom bo`lsa, muvaffaqiyat bo`ladi* (shart ergash gap)⁵.

Ammo ta`kidlash lozimki, havola bo`lak faqat bosh gapdagina mavjud bo`lganida, havola bo`lakning tushirib qoldirilishi ergash gap turining o`zgarishiga olib kelmaydi. Masala:

Tolib ana shuni bilib qo`ysinki, Akrom Saidning ham ocherki jurnalda chiqmaydi. Tolib aka bilib qo`ysinki, Akrom Saidning ham ocherki jurnalda chiqmaydi.

Har ikki holatda ham to`ldiruvchi ergash gap mavjud. Ikkinchi holatdagi, ya`ni bosh gapdagi havola bo`lagi tushib qolgan gaplarni ham havola bo`lakli bosh gap sifatida qarash maqsadga muvofiq, chunki havola bo`lak bunday hollarda qo`llanmaganda ham uning sintaktik o`rni ochiq ekanligi anik sezilib turadi. Odatda bosh gapdagi havola bo`lakning tushib qolishi, asosan, ega va to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gaplarda kuzatiladi. Gapdagi predikat

¹ Бердиалиев А. Кўрсатилган асар, 20—22-бетлар.

² Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. 7-е изд. М.: Учпедгиз, 1956, С. 467—468.

³ Бердиалиев А. Координатив алоқа ва унинг хусусиятлари. Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 3-сон, 21-бет.

⁴ Асқарова М. А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке. АДД. Ташкент, 1963, С. 64.

⁵ Асқарова М. А. Кўрсатилган асар, 64-бет.

ifodasining kuchli sintagmatik valentliqlari ko`pincha ana shu bo`laklar — ega va to`ldiruvchi bilan berkiladi. Ana shuning uchun ham bosh gapdagi ega va to`ldiruvchi vazifasida kelgan havola bo`laklar qo`llanmaganda ham bari bir, uning borligi anglanadi, istagan paytda uni tiklash mumkin.

Ega, kesim, aniqlovchi, to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gaplar havola bo`lakli gaplar hisoblanadi, ularda ba`zan bosh gapda, ba`zan ham bosh, ham ergash gapda havola bo`lak mavjud bo`ladi. O`lchov-daraja va o`rin ergash gapli qo`shma gaplarning ma`lum qismida ham ikki havola bo`lak (ham bosh, ham ergash gapda) mavjud bo`ladi. Natija ergash gapli qo`shma gaplarda havola bo`lak, asosan, bosh gapda bo`ladi. Qolgan barcha ergash gapli qo`shma gaplar havola bo`laksiz gaplardir.

II.2. Havola bo`lakli qo`shma gaplarda shakl va mazmun munosabati

a). Bir havola bo`lakli gaplarning mazmuniy tuzilishi

Sintaktik shakl morfologik shakl asosida vujudga kelgan yuqoriroq birlik sifatida sintaksis uchun belgilovchi rol o`ynaydi. Morfologik shakl esa muayyan sintaktik shaklning ichki tomonini ko`rsatadi... Sintaktik shakl morfologik shakl asosida vujudga kelganligi uchun morfologik shakl sintaktik shaklning ichki mundarijasini belgilaydi¹. Bir havola bo`lakli qo`shma gaplarning grammatik vositalari deganda, avvalo ko`rsatish olmoshi va *-ki* yuklamasi tushuniladi. Bunday ergash gapli qo`shma gaplarning o`ziga xos xususiyatlaridan biri doimo \square $\leftarrow \bigcirc$ qolipida bo`lishidir. Bunda modus, asosan, bosh gapda ifodalanib, ergash gap diktumni ifodalaydi. Ko`rsatish olmoshi va yuklama orqali birikish ergash gapli qo`shma gapning deyarli har bir turida uchraydi. Masalan:

Gap shundaki, Anna-Mariya sizni sevib qolgan. (O`Umarbekov).

Qo`shma gapda bosh gap (*Gap shundaki*) ergash gap (*Anna-Mariya sizni sevib qolgan*)dan oldin kelgan. Bosh gapdagi ega o`rnidagi havola bo`lak shu ko`rsatish olmoshi bilan ifodalangan. Mazmuniy jihatdan olib qaralsa, qo`shma gapda faqat bir denotativ voqea ifodalangan. Tabiiyki, qo`shma gap ikki (yoki undan ortiq) voqea ifodasi uchun xoslangan shakl, demak, mazkur qo`shma gapda ikki voqea ifodalanishi kerak. Gapda, haqiqatan ham, ikkinchi «voqea» ham bor, lekin tasavvur etilayotgan bu ikkinchi «voqea» denotativ voqea emas, balki modus «voqea»dir. Bu modus «voqea» alohida, ya`ni bosh gap orqali ifodalangan. Mazkur qo`shma gapda bosh gap asosiy voqeani emas, balki modusni ifodalaganligi uchun mazmuniy-funksional nomuvofiqlik, ikki denotativ voqea emas, balki bir denotativ voqea ifodalanganligi uchun esa mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelgan. Ko`rinib turibdiki, qo`shma gap qismlari o`rtasidagi munosabat mazmunan modus va denotativ voqea o`rtasidagi munosabat. Ayni choqda modus ifodalangan bosh gapdagi ega havola bo`lak bo`lib, u mazmunan bo`sh, ya`ni denotativ voqea ifodachisi bo`lgan ergash gapga ishora qilish barobarida mazmunga ega bo`ladi. Boshqacha qilib aytganda, u bosh gapdagi predikatning mazmuniy, valentligiga muvofiq qo`llanishi lozim bo`lgan nominativ voqeadan iborat sub`ektning o`rinbosaridir, zero ko`rsatish olmoshlari konkret predmetni ham, har qanday voqeani ham ko`rsatishi, ularga ishora qilaverishi mumkin. Bundan yana shuni ta`kidlash mumkinki, ega ergash gapli qo`shma gaplarning ayni turida bosh gapning predikati vazifasida muhim, ajablanarli, qiziq, aniq, yaxshi, yomon, bor, ma`lum, ma`lum bo`lmoq, anglashilmoq, esga tushmoq, kelib chikmoq kabi modal (keng ma`noda) ma`noli so`zlar keladi. Bunday so`zlarning sub`ekt valentligi ko`prok nominativ voqea ifodasini taqozo etadi.

Agar modusni nutqiy aloqada alohida ta`kidli ifodalashga zaruriyat bo`lmasa, ya`ni

¹ Бақоева Х. Гапнинг мазмуний ва шаклий тuzилиши.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 2-сон. – 29-бет.

modusni gap shaklida ifodalashga hojat bo`lmasa, denotativ voqea ifodasi bo`lgan ergash gap bosh gapdagi o`zining mantiqiy o`rni — havola bo`lak (ega) o`rnini egallaydi va gap sodda gapga aylanadi:

Shunisi muhimki, do`stlarimiz g`alaba qildi— Do`stlarimizning g`alaba qilganligi muhim.

Aytish mumkinki, ega ergash gapli qo`shma gaplarning bu turida modus «voqea» va denotativ voqea o`rtasidagi munosabat aks etadi. Bunda modus «voqea» sub`ekt mazmuniga ko`ra chala bo`ladi, denotativ voqeaning modus «voqea» ichiga mantiqan sub`ekt sifatida kirishiga ko`ra mazmuniy aloqa yuzaga keladi. Muayyan denotativ voqeaga nisbatlangan modus yoki modal mazmun ta`kidli ifodalana oladi¹.

Quyidagi misollar ham aytilgan fikrlarni dalillaydi:

Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o`z faoliyatini to`xtatmaydi. («Fan va turmush»).

Anvarga shunisi qiziq tuyuldiki, bu yerda ... hamma daraxtlar bir chiziq ustida saf turadi. (A.Qahhor).

Bu savollardan ma lum bo`ldiki, aybnoma uydirma emas. (A.Qahhor). *Bir narsa aniqki, ahvol yomon.* (A.Muxtor)

Ba`zan bosh gapda ega vazifasidagi havola bo`lak tushib qolishi ham mumkin. Bu turkiy tillardagi, xususan, o`zbek tilidagi gap qurilishining xususiyati, ya`ni shaklan ifodalanmagan eganing kesimdagi tegishli qo`shimchalar orqali anglanaverishi bilan izohlanadi. Buning ustiga, ega ifodalangan taqdirda ham, bunday ergashgan gaplarda u nominativ voqea ifodasining o`rinbosari, xolos, haqiqiy nominativ voqea esa ergash gap orqali ifodalangan, bu ifoda ayni qo`shma gapning ichida. Shunday ekan, bosh gapdagi eganing yo`qligi faqat shaklan bilinadi, xolos, mazmunan esa mutlaqo sezilarli emas. Mana shuning uchun ham bosh gapdagi ega vazifasidagi havola bo`lak shaklan ifodalanganda ham, ifodalanmaganda ham ergash gapli qo`shma gapdagi mazmun munosabatida sezilarli o`zgarish bo`lmaydi. Avvalgi holat uchun aytib o`tilgan mazmuniy xususiyatlarning barchasi bu holatda ham saqlanadi. Quyidagi misollarda buni to`la ko`rish mumkin:

Bu savollardan ma lum bo`ldiki, aybnoma uydirma emas... (A. Qahhor). *Lekin yuzidan ko`rinib turardiki, masala unga hali mutlaqo oydin emas...* (A. Muxtor).

Birdan esimga tushdiki, hozirgacha nomini so`ramabman (A.Muxtor). *O`zingga ayonki, ...men bir qochokman* (Yo. Yakvalxo`jaev).

Bunday qo`shma gaplarda ba`zan bosh gapning faqat kesimigina saqlanib, qolgan bo`laklar tushib qolishi mumkin. Bunday xollarda kesim vazifasidagi so`zning modal ma`noni ifodalash xususiyatiga ko`ra bosh gap kirish so`z maqomini oladi va demak, qo`shma gap sodda

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 247 б.

gapga aylanadi. Bu gapdagi mavjud mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlikning yo`qolishiga olib keladi¹. Quyidagi misollarda buni ko`rish mumkin:

Ma`lumki, Savr Inqilobi men a`zo bo`lgan Xalq hizbi rahnamoligida g`alaba qildi (A.Muxtor). Ma`lumki, til kishilar o`rtasidagi aloqa vositasidir. Shubhasizki, haq, so`z hamisha g`alaba qiladi. Tabiiyki, men, yigit kishi. ...jiddiy tus olishim kerak (A.Muxtor). Qiziqki, ishning barbod bo`lganiga Sobirjonning o`zi ham amin bo`ldi (A.Muxtor).

Ega ergash gapli qo`shma gaplarning tahlil etilgan bir havola bo`lakli turida mazmuniy bog`lanish juda zich, bu bog`lanishni ta`minlovchi shakliy vosita *-ki* uzvdir, lekin havola bo`lakning bundagi muayyan ishtirokini ham ta`kidlamoq lozim. Chunki ayni qo`shma gap qismlari orasidagi bog`lanishining sintaktik mexanizmida bu bo`lak asosiy o`rin tutadi. Bu fikrni havola bo`lak tushib qolgan holatlar uchun ham aytish mumkin, chunki ega vazifasidagi bu bo`lak qo`llanmaganda ham, predikatning sub`ekt valentligiga ko`ra eganing sintaktik o`rni (bo`sh bo`lsa ham) bilinib turadi.

Nihoyat, shuni ta`kidlamoq lozimki, ega ergash gapli qo`shma gaplarning bir havola bo`lakli ko`rinishida bosh, gap sinsemantik, ya`ni ergash gapdan ajratib olinganda, ma`noga ega bo`lolmaydi, chunki uning tarkibida konkret ma`noga ega bo`lmagan havola bo`lak bor. Lekin ulardagi ergash gap avtosemantik, ya`ni bosh gapdan ajratib olinganda ham ma`noga ega, boshqacha qilib aytganda, unda denotativ voqea ifodalangan, bosh gapda esa bor-yo`g`i modus ifodalangan. Masalan:

Gap shundaki, men Yakkachinor qishlog`iga ishga jo`nadim (O`Umarbekov).

Keltirilgan misolda bosh gap (*Gap shundaki*) ergash gapdan (*men Yakkachinor qishlog`iga ishga jo`nadim*) oldin berilgan. Bosh gapdagina havola bo`lak bor, u shu olmoshi bilan ifodalangan bo`lib; kesim sintaktik o`rnini egallagan. Mazmuniy jihatdan olib qaralsa, qo`shma gapda ikki denotativ voqea ifodalangan. Ammo bosh gapda ifodalangan denotativ voqea alohida olinganda «chala», ya`ni predikat jihatdan mavhum. Bu mavhumlik ergash gapdagi denotativ voqea bilan aloqadorlikka ko`ra yo`qoladi, ya`ni bosh gapdagi denotativ voqeaning predikati ergash gapdagi denotativ voqea bilan teng. Boshqacha qilib aytganda, bir denotativ voqea (bosh gapdagi) ikkinchi denotativ voqea (ergash gapdagi)ni mazmunan bevosita o`z ichiga oladi. Demak, denotativ voqealar o`rtasidagi munosabat — aloqa juda zich. Bu o`rinda yana bir narsani ta`kidlamoq joizki, bunday kesim ergash gapli qo`shma gaplarda bosh gapdagi kesimning shu qabilidagi havola so`zlar bilan ifodalanishi ichki bir zaruriyatdir. Chunki bosh gapdagi sub`ekt ifodasi bo`lgan ega vazifasida *topshiriq, odat, oqibat, shart, sir, e`tiqod, jihat, bois, gap, qizig`i, to`g`risi, muhimi* kabi so`zlar keladiki, bu so`zlarning mazmuniy tavsifi ko`proq denotativ voqeani taqozo etadi, lekin denotativ voqea ifodasini ayni sub`ektlarga

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 249-б.

nisbatlanadigan predikat ifodalanadigan o`ringa hamisha ham qo`yish mumkin emas. Ana shuning uchun ham ayni maqsad va mazmun uchun shu qabilidagi havola bo`lak juda qulay. Buning ustiga havola bo`lak mavjud bo`lganda, mazmun qismlari alohida ta`kid oladi.

Quyidagi gaplarda ham buni ko`rish mumkin:

Buning natijasi shu bo`ldiki, To`laganning qanshariga musht tushdi (A.Qahhor). Taniganimning boisi shuki, bizning hovlimiz bilan Sharofat ammamning hovlisi o`rtasida eshik ochilgan edi (G`.G`ulom). Shunga xursandmizki, bolalar o`z yo`lini topib ketishdi (Y.Sulaymon). Tilagimiz shuki, hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzandlar bo`linglar (Q.Kenja).

Tahlil etilayotgan kesim ergash gapli qo`shma gap turida havola bo`lak vazifasida, asosan, shu olmoshining qo`llanishini ta`kidlash o`rinlidir. Ba`zan bu olmosh shunda shaklida ham, shundan iborat shaklidagi birikma tarkibida ham keladi:

Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g`o`ra ichiga qamab bera biladi (A.Qahhor). Maslahatim shulki, bugun o`zga bir go`shaga chekining! Toileim shulki, jahonda bir guliston tanladi (H.Olimjon). Muhammad Yusuf ijodining o`ziga xos xususiyati shundaki, u juda oson o`qiladi, sodda, xalqchil (O.Sharafuddinov). Buning natijasi shu bo`ldiki, To`laganning qanshariga musht tushdi (A.Qahhor). Keragi shuki, ana shu miqqiyini ham boqish kerak (G`.G`ulom). Qizig`i shundaki, shu ko`rinishiga ovozi muloyim edi (F.Musajonov).

Bu holatlarda ham denotativ voqealar o`rtasidagi munosabatda sezilarli o`zgarish bo`lmaydi.

Ammo bosh gapning egasi vazifasida *qizig`i, to`g`risi, ochig`i, quvonchlisi, yaxshisi, yomoni* kabi modallik, baho mazmuniga ega bo`lgan so`zlar kelganda, bosh gapdagi denotativ voqea modus «voqea» maqomini oladi, qo`shma gap faqat ergash gapda ifodalangan bir denotativ voqea ifodachisiga aylanadi. Qo`shma gapning mazmuni modus «voqea» va denotativ voqea o`rtasidagi munosabatdan iborat bo`ladi. Buning natijasida bosh gapning mazmunan «kambag`allashuvi»ga ko`ra qo`shma gapda mazmuniy-funksional nomuvofiqlik, denotativ voqeaning ikkita emasligiga ko`ra mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bunda modus, albatta, ta`kidli ifodaga ega bo`ladi. Ko`rib o`tilganiday, bir havola bo`lakli kesim ergash gapli qo`shma gaplarda bog`lovchi vosita hamisha *-ki* dir.

Gap shundaki shaklidagi bosh gap kesim ergash gapli qo`shma gap tarkibida juda ko`p qo`llanadi, u anchayin turg`unlashgan, shuning uchun ham bunday sintaktik tizim shaklan ayni qo`shma gapda bosh gap bo`lsa-da, u hozirda mazmunan «kambag`allashib», ayni gapni oldingi gap bilan bog`lovchi vositasiga aylangan. Bunday bosh gapda ham denotativ voqea, ifodalanmaydi, balki u ma`lum darajada modus ifodachisidir, u ham bog`lash vositasi, ham

ta`kid uchun xizmat qiladi. Misollar:

1. *Eng yaxshi yo`l shuki, yaxshi do`st yor-diyordan ayrilishni ixtiyor etmaydi.* 2. *O`tgan ota-bobolarning xulosasi shuki, shirin so`z odamlarning qalbini bog`lovchi zanjirdir.* 3. *Qisqa gap shuki, odam so`zi bilan taniladi, axloqi bilan maqtaladi.* 4. *Donolarning o`giti shundayki, so`zning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir.* 5. *Xalqning xulosasi shuki, xudbin odam hech qachon elga qayishmaydi.*

Fors tilida ham shunday turg`un tizim bor, lekin u bog`lovchiga aylanib bo`lgan: *va hol onki* — *vaholanki*. U ham aslida bosh gap (qo`shma gapda) bo`lgan. Bog`lovchi shaklida bu so`z o`zbek tiliga ham o`tgan. Masalan:

Vaholanki, biz qishloqda partiya siyosatining mezonini belgilaydigan fermalarda boshlang`ich tashkilotlarni ko`paytirishimiz... kerak (N.Qobul).

O`zbek tilidagi *holbuki* zidlovchi bog`lovchisi ham aslida ana shu *va hol onkiga* o`xshatib, uning tarjimasida yuzaga kelgan. Uni ham aslida qo`shma gap tarkibidagi bosh gap tarzida (*Hol buki, hamma ishga tushib ketdi*) tasavvur qilish mumkin¹. Lekin u yaxlit tasavvur qilinadi, u zidlovchi bog`lovchi; *...Yig`lash sening haqqing emas, mening haqqim, holbuki men yig`lamayman* (A. Qodiriy).

Ba`zan bosh gap to`lig`icha kirish iboralar maqomini olishi mumkin². Avvalo shuki, odob kerak (G`.G`ulom). Bu, ayniqsa, bosh gapning havola bo`lakdan iborat kesimi tushib qolganda, juda aniq bo`ladi:

Gapning ochig`i, endi yashashga u qadar ishqiboz ham emasman. (N.Qobul). *To`g`risi, jurnalistlar va unchalik e`tiqodim yo`q.* (N.Qobul). *Eng muhimi o`zingizni yomonotliq bo`lishdan asrang* (N.Qobul). *Eng dahshatlisi, bu qo`lyozmalarni-o`qiydigan odamlarning o`zi yo`q* (N.Qobul).

Kesim ergash gapli qo`shma gaplarning bu turi juda keng tarqalgan. Aytib o`tish kerakki, kesim ergash gapli qo`shma gaplarning bu turida bosh gap sinsemantik, ergash gap avtosemantikdir³.

Shuni bilingki, dunyoda tinchlikdan ulug`roq ne`mat yo`q.

Bir havola bo`lakli to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gaplarda havola bo`lak to`ldiruvchi vazifasida faqat bosh gapda mavjud bo`ladi va u asosan shu olmoshi orqali ifodalanadi. Bu havola so`z -ki uzvi bilan birgalikda bosh gapni ergash gap bilan bog`lovchi vosita vazifasini ham bajaradi. Keltirilgan gapda bosh gap (*Shuni bilingki*) ergash gap (*dunyoda tinchlikdan ulug`roq ne`mat yo`q*)dan oldin kelgan. Albatta, bu ko`rinishdagi qo`shma gaplar uchun bu doimiy holatdir. Bosh gapdagi havola bo`lak, ko`rinib turganiday vositasiz to`ldiruvchi sintaktik

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 255-б.

² Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. Тошкент: Фан, 1976, 420-бет.

³ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 256 б.

o`rni egallagan. Bu vositasiz to`ldiruvchi havola bo`lak sifatida mazmunan ergash gapda ifodalangan denotativ voqeaga ishora qiladi, mantiqan uni bosh gapga olib kiradi. Bosh gapda esa denotativ voqea emas, balki modus «voqea» ifodalangan. Boshqacha qilib aytganda, ayni qo`shma gapda faqat bitta denotativ voqea ifodalangan, ikkinchi «voqea» esa bu voqeani tavsiflovchi modusdir. Modusning alohida, ta`kidli ifodalash zaruriyati mazkur voqea ifodasi uchun sodda gap emas, balki qo`shma gap shaklining tanlanishiga olib kelgan. Mazkur qo`shma gapning mazmuni esa, demak, denotativ voqea bilan modus «voqea» o`rtasidagi munosabatdan iborat. Agar modusni ta`kidli ifodalashga zaruriyat bo`lmasa, denotativ voqea ifodasi modus «voqea» ifodasining ichiga shaklan kiritiladi (aslida mazmunan va mantiqan ichida) va bunda mazkur sintaktik tizim shaklan sodda gapga aylanadi: *Dunyoda tinchlikdan ulug`roq ne`mat yo`qligini bilib oling*. Bu tildagi til vositalarini tejash moyasining amal qilishi natijasi bo`ladi. Ammo keltirilgan qo`shma gap tildagi ortiqchalik moyasining amal qilishiga ko`ra shakllangan. Shuning uchun ham mazkur qo`shma gapda ham mazmuniy-funksional (grammatik bosh gap mazmunan «kambag`al»), ham mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik bor. Lekin bu ham nutqiy aloqadan kuzatilgan maqsad bilan aloqador bo`lgan zaruriyatdir.

Havola bo`lak vazifasidagi so`z faqat vositasiz to`ldiruvchi o`rnidagina emas, balki vositali to`ldiruvchi o`rnida bo`lganida ham, aytilgan mazmuniy xususiyatlar to`lagicha saqlanaveradi. Tayinki, havola bo`lakning vositasiz yoki vositali to`ldiruvchi sintaktik o`rnida bo`lishi ayni bosh gapdagi kesim o`rni egallagan fe`l (yoki boshqa turkum)ning ma`nosi, valentligi bilan bog`liq. Mazmuniy grammatikada ob`ektli va ob`ektsiz fe`llar farqlanadi. Bosh gapning kesimi vazifasida ob`ektsiz fe`llar kelganda, havola bo`lak vositali to`ldiruvchi o`rnida bo`ladi:

Biz shunga aniq ishonamizki, millatlararo nizolar yaxshilikka olib kelmaydi.

Bunday to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gaplarda bosh gapning kesimi vazifasida keladigan so`zlar ma`no jihatidan modus ifodasi uchun mos keladigan so`zlar bo`ladi. Bu vazifada ko`proq bilmoq, ko`rmoq, aytmoq, ta`kidlamoq, esda tutmoq, esdan chiqarmoq, payqamoq, ishonmoq, qo`rqmoq, fahmlamoq, tushunmoq, ogoh bo`lmoq, o`ylamoq, sezmoq, qaror qilmoq, aniqlamoq, tan bermoq, his etmoq, mo`ljallamoq, shubhalanmoq kabi his-sezgi, idrok, nutqiy va fikriy faoliyatni bildiruvchi so`zlar keladi. Bunday ma`nolar modus «voqea» ifodasi uchun juda muvofiq keladi. Bu o`rinda yana ta`kidlash kerakki, aytmoq, demoq, xabar qilmoq kabi so`zlar bosh gapda kesim bo`lib kelganda ham, ular modus ifodasi uchun xizmat qiladi. Ilgariroq aytib o`tilganiday, bunday qo`shma gaplarda V.V.Martinov iborasi bilan aytganda, real borliqdagi (g`ayrilisoniy) voqea bilan bu voqea haqidagi xabar (lisoniy) o`rtasidagi munosabat aks etadi. Boshqa keltirilgan fe`llarning ma`nosida «baho», «ruhiy holat», «taxmin», «ishonch» kabi modallik uzvlarining borligi ko`rinib turibdi. Bular ham yana shuni

ko`rsatadiki, to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gaplarning ayni turida bosh gap hamisha modusni ifodalaydi.

Ko`pincha aytmoq, fe`li alohida emas, balki birikma tarkibida bosh gapning kesimi vazifasida keladi. Bunda ayni fe`l harakat nomi (aytish) shaklini olib, kerak, lozim, shart, mumkin kabi modal so`zlar bilan birikmaga kirishadi. Bu modal so`zlar bosh gapda ifodalangan «voqea»ning modus xarakterida ekanligini yanada ta`kidlaydi¹. Quyidagi misollarda buni ko`rish mumkin:

Bu o`rinda shuni aytish kerakki, Qalandarovlarni o`sha davr hayoti yarata boshlagan edi (M.Qo`shjonov). Faqat shuni aytishim mumkinki, daryoki quritishga bizning konstitutsiyamiz yo`l qo`ymaydi (A.Muxtor). Hozircha faqat shuni aytishim mumkinki, safar jiddiy, og`ir, uzoq va mas`uliyatli bo`ladi (A.Muxtor).

Bunday holatdagi bosh gaplar kirish iboralarga juda yaqin turadi. Ularning kirish iboralarga mazmunan juda yaqin, hatto ular bilan bir xil ekanligini ayni gaplarning boshida qo`llangan *avvalo, bu o`rinda, faqat* kabi so`zlar alohida ta`kidlaydi.

Bosh gapdagi to`ldiruvchi vazifasidagi havola bo`lak shaklan ifodalanmasligi ham mumkin. Lekin uning o`rni bari bir sezilarli, chunki tegishli kesim vazifasidagi so`zning valentligi uni ko`rsatib turadi. Shu mazmuniy valentlik bari bir ergash gapdagi denotativ voqeaga ishora qilaveradi va shu asosda ayni denotativ voqeaga bosh gapda ifodalangan modus nisbatlanaveradi. Demak, bosh gapdagi havola bo`lakning ifodalanmaganligi qo`shma gapdagi mazmuniy xususiyatlarga ta`sir etmaydi. Masalan:

Bilingki, jim turib salomat bo`lish gapirib malomatga qolishdan afzal. Yaxshi bilar edimki, shunday suluv qizlar bizda juda siyrak bo`ladi (G`.G`ulom). Shoyusuf aka aniq ishonadiki, o`zining o`lik-tirigi... o`z mahalla xalqlaridan ajralmaydi (G`.G`ulom). Mana shundagina Ergash fahmladiki, buvasi endi dunyoda yo`q. (A.Muxtor).

Bosh gapdagi havola bo`lakning shaklan ifodalanmasligi ifodalangan holatlarga qaraganda ko`proq uchrashini ta`kidlamoq lozim. Shu ham muhimki, bosh va ergash gaplardagi kesim vazifasidagi fe`l grammatik jihatdan chegaralangan emas, ya`ni bu fe`llar son, shaxs, zamon, bo`lishli-bo`lishsizlik jihatidan chegaralanmagan. Bosh gapning kesimi bo`lib keladigan fe`llar orasida *bilmoq, aytmoq, o`ylamoq, ko`rmoq* so`zlari, ayniqsa, qo`p qo`llanadi. Bosh gapda faqat kesimgina saqlanib qolib, boshqa barcha bo`laklar tushib qolsa, bosh gap mazmunan kirish so`z bilan tenglashadi. Masalan:

O`ylaymanki, yuzimizni yerga qaratadigan voqea yuz bermaydi (N.Qobul). Bilamanki, o`z og`zi bilan hech narsani aytmaydi (A.Muxtor). Aytmoqchimanki, ocherklarimizning qahramonlari-quruq his-tuyg`usiz bo`lib qolishmasin (F.Musajonov). Demoqchimanki,

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 258-б.

o`quvchini bitta qolipga o`rgatib, zeriktirib qo`ymaylik (F.Musajonov).

Bunday bo`lishi tabiiy, chunki tahlil etilayotgan qo`shma gap turida bosh gap hamisha modusni ifodalaydi, kirish so`z yoki kirish ibora ham modus ifodalash vositasi. Shuning uchun ham bunday bosh gap va kirish so`z hamda ibora o`rtasida mazmuniy chegara yo`q¹.

Lisoniy adabiyotlarda to`ldiruvchi ergash gaplar bosh gap bilan -ki uzvidan tashqari -mi, -ku yuklamalari vositasida ham bog`lanishi aytiladi². Ana shu adabiyotlardan birida shunday deyiladi: «Bosh gapga -mi yuklamasi vositasida bog`lanib kelgan to`ldiruvchi ergash gaplar ogohlantirish va ta`kid mazmunini anglatadi. Bunday qo`shma gaplardagi -mi yuklamasi -ki bilan almashtirilsa, qo`shma gapning mazmuniga deyarli putur yetmaydi: *Bilasizmi, yerlarimiz Qizilqum bilan chegaradosh. — Bilasizki, yerlarimiz Qizilkum bilan chegaradosh*»³. Avvalo ogohlantirish va ta`kid mazmuni ob`ektiv mazmunmi yoki sub`ektiv mazmunmi? Albatta, u sub`ektiv mazmun, ya`ni ob`ektiv mazmunga so`zlovchining munosabati, nuqtai nazarini ifoda etadi. Biz ta`kidladikki, to`ldiruvchi ergash gaplarning bu turida asosan, faqat bir ob`ektiv mazmun-denotativ voqea mavjud bo`lib, u ham ergash gapda ifodalanadi. Bosh gapda esa ana shu denotativ voqeaga tegishli modus — so`zlovchining munosabati ifodalanadi, demak, ogohlantirish, ta`kid ma`nosi ergash gapda emas, bosh gapda ifodalanishi mumkin. Buning ustiga, ta`kid ma`nosi bog`lovchi vosita -mi yuklamasi emas, balki -ki uzvi bo`lganda anglashiladi. Qolaversa, qo`shma gap qismlarini bog`lovchi vositalarning mazmuniy munosabatning ifodalanishidagi beqiyos ahamiyati oldinroq ko`rsatib o`tildi, shunday ekan, -mi yuklamasi -ki bilan almashtirilganda mazmuniy munosabatda muayyan sub`ektiv o`zgarishlar bo`lishi tayin. Xususan, -mi bo`lganda, bari bir, mazmuniy munosabat so`roq ottenkasi bilan bir qadar murakkablashadi.

Bunday gaplarda ikki xil holatni farqlash maqsadga muvofiq. Bog`lovchi vosita -mi yuklamasi bo`lganda, ergash gap tarkibida ba`zan so`roq bildiruvchi so`z mavjud bo`ladi, ba`zan esa bunday so`z bo`lmaydi:

Bilasanmi, bo`rilar qanday uvlaydi? (Oyga qarab hasratli, uzun) (Y.Eshbek). *Bilasanmi, barimiz bir elat bolasimiz* (Sh.Xolmirzaev).

Birinchi misoldagi ergash gapda qanday so`roq olmoshi bor, u ham shaklan, ham mazmunan -mi yuklamasi bilan aloqalanadi. Shuning uchun ham ayni yuklamaning ma`nosi saqlanadi. Mazmunan bo`rilarning uvlash tarzi haqidagi tagbilim — presuppozitsiya⁴ tinglovchiga ma`lum emas yoki so`zlovchi shunday deb o`ylaydi. Shuning uchun ham bosh

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 260-б.

² Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 192-бет; Абдурахмонов Ғ., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. \Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1979, 138-бет.

³ Фуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 193-бет.

⁴ Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап. Ўзбек тили ва адабиёти, 1986, 3-сон.

gapning qo`llanishi, u faqat modusni ifodalasa ham, zaruriyat, demak bunday holatlarda to`la ma`nodagi to`ldiruvchi zrgash gapli qo`shma gaplar haqida gapirish mumkin. Masalan:

Bilasizmi, bu suvlarni kayoqdan opkeltiryapmiz? (S.Ahmad). *O`shandan keyin men, bilasizmi, ne ahvolda qoldim?* (A.Muxtor).

Oldin keltirilgan *Bilasanmi, barimiz bir elat bolasimiz* gapidagi ergash gap tarkibida so`roq so`z yo`q. Mazmunan so`zlovchining ham, tinglovchining ham ergash gapda aytilgan «*bir elat bolasi*» ekanligi xaqidagi tagbilim har ikki tomon uchun ham ma`lum, demak, bu xaqda so`rashga zaruriyat yo`q. Ana shuning uchun ham bunday holatda -mi so`roq yuklamasining ma`nosi ottenka sifatida qismangina saqlansa-da, ayni ma`no, asosan, neytrallashadi, kuchsizlanadi. Bosh gap, asosan, eslatish, ma`lum axborot (ergash gapdagi)ni qayta yodga tushirish uchun xizmat qiladi, bu jihatdan bunday bosh gap kirish bo`laklarga juda yaqin turadi. Bu holat hisobga olinadigan bo`lsa, ayni holatlarda to`la ma`nodagi to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gaplar haqida gapirish birmuncha qiyin.

Zumrad, bilasanmi, keyingi paytlarda hadeb bitta narsani o`ylayveraman (S.Siyoev). *Bilasanmi, u meni o`zimdanda ham ko`proq yaxshi ko`radi* (N.Qobul). *Bilasizmi, kishi charchagan vaktida ko`ngilni g`ash qiladigan xayollarga boradi* (A.Qahhor).

Ko`rinib turganiday, bunday holatlardagi bosh gapdagi kesim vazifasida ko`proq *bilmok* fe`li keladi. Bu, ayniqsa, og`zaki nutqda ko`p kuzatiladi. Ayrim kishilar borki, ular xar ikki so`zning birida *bilasizmi, bildingizmi, tushundingizmi* kabi so`zlarni qo`shib gapiradilar. *Bilmoq* fe`lidan boshqa yana ayrim fe`llar ham mazkur vazifada kelishi mumkin:

Ko`ryapsanmi, mening boshim erkak boshidir (A.Muxtor). *Ishonasanmi, xotini bir igna ham bermadi* (S.Siyoev). *Ishonasizmi, men usiz bir kun ham yasholmayman* (N.Qobul).

Ba`zan bosh gapning kesimi vazifasida ishonch, taxmin va shu kabi ma`nolardagi otlashgan so`zlar, so`z birikmalari yoki turg`un iboralar keladi. Bunday birliklarning mazmuniy valentligiga ko`ra to`ldiruvchi sintaktik o`rnini egallaydigan havola bo`lak ko`proq shunga so`z shaklidan iborat bo`ladi. Lekin u ko`pincha shaklan ifodalanmaydi. Bunday gaplardagi mazmuniy munosabat ham bosh gapning kesimi fe`l bilan ifodalangan qo`shma gaplardagidan deyarli farq qilmaydi. Lekin modus, ayniqsa, sub`ektiv modallik bosh gapda juda aniq ifodalanadiki, bu bosh gapni kirish iboralarga yaqinlashtiradi¹. Masalan:

Aminmanki, siz bunday joyni ko`rishni xayolingizga ham keltirmagansiz (O.Yusupov). *Hayronmanki, olibsotar shuncha pulni nima kiladi* («Tosh.oqsh.»). *Imonim komilki, boyvachcha qamalganlarning bironasini tanimaydi* (Yo.Yakvalxo`jaev). *Ishonchim buyukki, bo`lur zo`r bayram* (Zulfiya).

Nihoyat, ta`kidlash lozimki, bir havola bo`lakli to`ldiruvchi ergash gapli qo`shma

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 262-б.

gaplarda bosh gap unda hamisha modus ifodalanishiga, va, albatta, havola bo`lakka ko`ra sinsemantikdir, ya`ni ergash gapdan ajratib olinganda, ma`noga ega bo`lolmaydi, ergash gap esa avtosemantikdir, chunki unda denotativ voqea ifodalanadi.

Shunday so`zlar borki, ular kapalakka o`xshab jumladan-jumlaga yengil ko`chib yuraveradi... (A.Qahhor) gapi bir havola bo`lakli aniqlovchi ergash gapli qo`shma gapdir. Unda shunday so`zidan iborat havola bo`lak mavjud bo`lib, u bosh gapdagi so`zlar so`zi bilan ifodalangan eganing aniqlovchisi bo`lib kelgan. Bosh gapda ham, ergash gapda ham alohida-alohida denotativ voqea ifodalangan. Ma`lumki, aniqlovchi gapning konstruktiv bo`lagi emas uning gap tarkibida mavjud yoki mavjud emasligi gapning sintaktik asosiga ta`sir etmaydi. Ammo bosh gapdagi havola bo`lak orqali ifodalangan aniqlovchi anchayin muhim, chunki u ergash gapga ishora qilish yo`li bilan ergash gapda ifodalangan denotativ voqeani bosh gapda ifodalangan denotativ voqea ichiga olib kiradi. Ta`kidlash kerakki, aniqlovchi bo`lagini gapning konstruktiv bo`lagi bo`la olmagan uchun ham bosh gapning mazmuni sifatidagi denotativ voqea hozirgacha ko`rib o`tilgan ergash gapli qo`shma gaplardagidan farqli o`laroq chala bo`lmaydi. Denotativ voqealarning o`zaro zich aloqasini ta`minlaydigan mazmuniy jihatlardan yana biri munosabatga kirishayotgan denotativ voqealar muayyan tarkibiy uzvlariga ko`ra umumiylikka ega bo`ladi va bu aksar xollarda shaklan ham ifodalanadi. Mazkur qo`shma gapda bosh gapdagi voqea sub`ekti, ya`ni ega aniqlanmoqda, ergash gapda ifodalangan denotativ voqeaning sub`ekti ham bosh gapdagi sub`ektning aynan o`zi, ular so`zlar va ular so`zlari orqali ifodalangan va tegishli gaplarning egasi sifatida kelgan. Demak, bosh gapdagi havola bo`lakdan iborat aniqlovchiga ega bo`lgan so`z ergash gapda mazmunan u yoki bu tarzda takrorlanishi mumkin. Ammo misoldagiday, masalan, ega havola bo`lakli aniqlovchiga ega bo`lsa, bu eganing ma`nosiga ergash gapda, albatta, ega vazifasidagi so`z (ko`proq olmosh) ishora qilishi shart emas, boshqa sintaktik o`rinlardagi so`zlar ham bo`lishi mumkin. Aytish kerakki, ergash gapdagi olmosh bilan ifodalanib, denotativ jihatdan bosh gapda aniqlanayotgan so`z bilan bir xillikka ega bo`lgan bo`lak havola bo`lak bilan aloqalanmaydi, agar shunday bo`lganda edi, gap ikki havola bo`lakli bo`lib qolar edi. Ba`zi hollarda ergash gaplardagi olmosh bilan ifodalanib, bosh gapda havola bo`lak tomonidan aniqlanayotgan bo`lak bilan bir xil denotatga ega bo`lgan bo`lak tushib qolishi ham mumkin. Lekin bunday hollarda ham denotativ voqealar o`rtasidagi munosabat bemalol ifodalanaveradi. Bosh gapdagi havola bo`lak tarzidagi aniqlovchilar sifatida shunday so`zidan tashqari ba`zi, ayrim, bir kabi so`zlar ham keladi. Masalan:

Men senga shunday narsalar keltirayki, ularni tushingda ham ko`rmagansan. (Oybek).
Endilikda hech oila yo`qki, unda bir yoki bir necha savodli odam bo`lmasin. (A.Qahhor).
Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladilar. («Fan va turmush»).
Sevgi shunday navbahorki, u tikondan gul qilur. (E.Vohidov).

Havola bo`lakdan iborat aniqlovchi bosh gapning ot kesimini aniqlab kelishi ham mumkin. Bunda bosh gapda ifodalangan denotativ voqeaning predikati bilan ergash gapdagi denotativ voqeaning sub`ekti bir narsadan iborat bo`lishi mumkin. Masalan, *Sevgi shunday navbahorki, u tikandan gul qilur* (E.Vohidov) gapida bosh gapning kesimi (*navbahor*) shunday havola bo`lagi bilan aniqlangan. *Navbahor* so`zining ham, u olmoshining ham ayni matndagi denotati, bitta narsa, ammo bu bitta narsa ikki denotativ voqea tarkibiga ikki xil uzv sifatida — predikat va sub`ekt sifatida kirgan. Bu umumiylik mazkur qo`shma gapdagi mazmuniy munosabatni ta`min etgan. Ammo bu, ya`ni bosh gapdagi predikatning ergash gapdagi sub`ekt bilan denotativ bir xillikka ega bo`lishi doimiy holat emas. Bosh gapdagi aniqlanayotgan predikat ergash gapdagi boshqa bo`laklar bilan ham ana shunday denotativ bir xillikka ega bo`lishi mumkin (faqat kesim bilan emas). Ergash gapdagi bosh gap predikati bilan denotativ bir xil bo`lgan bo`lak tushib qolishi ham mumkin. Bunda mazmuniy munosabatda o`zgarish bo`lmaydi.

Yuqorida sharhlangan mazmuniy-shakliy xususiyatlar bosh gapdagi havola bo`lak to`ldiruvchini, holni aniqlab kelganda ham kuzatiladi. Quyidagi misollarda buni ko`rish mumkin: *Keyinchalik shunday o`qituvchilarni ko`rdimki, ular o`quvchining ko`z o`ngida chekar edi*. (Z.Mo`minova). *Men sizni hozir shunday joyga olib borayki, bir umr mendan xursand bo`lib yurasiz*. (O.Yunusov). *To`rabek shunday hayajonda chaqirdiki, o`zi tilla topgan odam ham shunchalik to`lqinlanmas* (M.Mansurov).

Er o`rik emaski, o`zi gullab, o`zi pishsa (A. Qahhor) qabilidagi gaplar - aniqlovchi ergash gapli qo`shma gaplardir. Mazkur gapda ifoda etilgan mazmun «*Er o`zi gullab, o`zi pishaveradigan o`rik emas*» tarzida. Mazkur gapdagi o`rik so`zi oldidan bir so`zi qo`shilsa, bu nazariy jihatdan mumkin, keyingi gapning ana shu birning ma`nosini ochish uchun kelganligini bemalol anglash mumkin. Buning ustiga, avvalgi holatlardagi kabi bosh gapdagi predikat ergash gapdagi sub`ekt bilan denotat jihatdan bir narsa, ya`ni; *o`rik* — (*o`rikning*) o`zi. Bosh gapdagi aniqlovchi vazifasidagi havola bo`lakning ba`zan tushib qolishi bor hodisa. Ayniqsa, mazkur misoldagi kabi holatlarda mantiqiy tagbilim (presuppozitsiya) juda aniq bilinib turadi, ya`ni o`rikning o`zi gullab, o`zi pishishi hammaga ma`lum narsa. Ana shunga ko`ra ham bunday holatlarda predikat bo`lishsiz shaklda (*o`rik emas*) ifodalanadi, ergash gapning kesimi esa shart maylidagi fe`l bilan ifodalanadi. Demak, bunday gaplarda ergash gap bosh gapdagi bo`lishsiz shaqlda ifodalangan ot kesimni aniqlaydi, ya`ni ular aniqlovchi ergash gapli qo`shma gaplardir. Masalan :

Yurak tandir emaski, o`t yoqib qizdirsang. Yigirmata mol ignamaski, bir kovakka berkitib qo`ysak. (A.Ko`chimov)

Qisqasi, bir havola bo`lakli aniqlovchi ergash gapli qo`shma gaplarda mazmuniy-

funksional va mazmuniy-sintaktik muvofiqlik mavjud bo`ladi. Ulardagi mazmun ikki (yoki undan ortiq) denotativ voqea o`rtasidagi munosabatdan iborat. Bu munosabatning yuzaga kelishida voqealar uzvlari o`rtasidagi denotativ umumiylik muhim rol o`ynaydi. Bosh gapda havola bo`lak qaysi bo`lakni aniqlasa, shu bo`lakning denotati ergash gapda ham muayyan bo`lakning denotati sifatida mavjud bo`ladi. Bunday gaplardagi shakliy bog`lovchi vosita *-ki* uzvidir¹.

Natija munosabati natija ergash gapli qo`shma gaplarning mazmunini tashkil qiladi. Ikkinchi voqea birinchi voqeaning natijasi sifatida yuzaga keladi. Shuni aytish kerakki, bosh gapdagi harakat atay, ergash gapdagi harakatni amalga oshirish uchun qilinmaydi, balki ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakatning natijasi sifatida o`z-o`zidan kelib chiqadi. Masalan:

Yigitlar... uni shunchalik izzat qilishar ediki, Asqar ota bu juvonning oddiy traktorchigina ekaniga shubhalanib qoldi. (A.Qahhor).

Malik muallim Suyarqulning qulog`ini shunday buradiki, bolaning ko`zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. (A.Ko`chimov).

Aytish kerakki, bunday qo`shma gaplarning bosh gapi tarkibida deyarli hamisha shunday, shunaqa, chunonam kabi so`zlar bo`ladi va ular bosh gapdagi -voqeaning natijasi borligiga, ya`ni ergash gapga ishora qilib turadi, shuning uchun ularni havola bo`laklar deyish mumkin. Natija ergash gapli qo`shma gaplar, demak, bir havola bo`lakli gaplardir, bu bo`laklar bosh gapda, asosan, hol o`rnida keladi. Ana shu bo`lakka ko`ra bosh gap avtosemantik bo`lolmaydi, ergash gap esa avtosemantik bo`la oladi.

Bir havola bo`lakli o`lchov-daraja ergash gapli qo`shma gaplarda bosh gapda shunday, shu darajada, shu qadar, shunchalik kabi havola so`zlar mavjud bo`ladi, bu so`zlar ba`zan o`lchov-daraja holi sifatida bir o`zi, ba`zan birikma tarkibida kelishi mumkin. Bu havola bo`lak ergash gapni bosh gapga olib kiruvchi, ergash gapning bosh gapdagi «o`rinbosari» sifatida muhimdir. Ergash gapdagi denotativ voqea bosh gapdagi denotativ voqeadagi harakatning bajarilish darajasini ko`rsatuvchi uzv sifatida ayni asosiy voqea bilan aloqalanadi. Masalan:


Bir yilda kabinetini shu darajada o`zgartirib yubordiki, ko`rsangiz, tarix muzeyi deysiz (A.Ko`chimov). O`shanda shu qadar o`lgim kelganki, buni so`z bilan tasvirlab bo`lmaydi (N.Qobul). Hali Onaxonning bilmaganlari shu qadar ko`p ediki, so`rab oxiriga yetolmasday ko`rindi (A.Muxtor).

Bu turda bosh gap avtosemantik bo`lolmaydi, ergash gap esa bo`lishi mumkin.

Ba`zan sabab ergash gapli qo`shma gaplarda sabab voqeani birinchi o`ringa chiqarish, unga urg`u berish maqsadi bilan oldin ergash gap, keyin bosh gap keltiriladi. Quyidagi misollarda buni ko`rish mumkin:

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 267-б.

Uning bunday odati yo`q edi, shuning uchun yigit hayron bo`lib, biroz qarab turibdi (A.Qahhor). O`sha pari qizlarning ruhlari hamon suv tagida yasharmish, shuning uchun sirli daryo deb atalgan (O`Hakimali). Ammo shu tobda hordiq chiqarishga fursat yo`q edi, shu bois... tag`in jiddiy ishga kirishib ketdilar (O.Yusupov). Saodat ko`pdan beri ashula aytmagan edi, shuning uchun ham u jaranglagan ovozlarga qo`shilib ashula aytgisi keldi (I.Rahim).

Bu o`rinda bir narsani aytib o`tish maqsadga muvofiq. Ayrim adabiyotlarda shuning uchun ergashtiruvchi bog`lovchi sifatida talqin etiladi. Lekin aslida unday emas. Bunday talqin rus tilidan nusxa olishning oqibatidir. Ayni shuning uchun odatdagi so`z shaklidir, ya`ni olmoshQuchun. Bu so`z shakli «qotib» qolgan emas, shu uchun, shu bois, shu sababli, shu tufayli kabilar ham mazmunan shuning uchun bilan bir. Keltirilgan gaplarda bu so`z shakllarini bemalol almashtirib qo`llayverish mumkin. Shundan kelib chiqib, shuning uchun kabilarni sabab holi (bosh gapda) sintaktik o`rnidagi havola bo`lak sifatida talqin etish maqsadga muvofiq. Bu, ayniqsa, ayni havola bo`lakli bosh gap ergash gapdan oldin kelgan, quyidagi gaplarda yana ham aniq bilinadi: *Men shuning uchun ham buni qilamanki, Hayotxon keyinchalik G`ulomjondan umrbod rozi bo`lsin (M.Ismoilijoy). Ocherk menga shuning uchun yoqmadiki, unda tirik, jonli odam yo`q. (F.Musajonov).* Tarkibida mazkur so`z shakllari bo`lgan bosh gaplar ishtirok etgan gaplarni bir havola bo`lakli sabab ergash gapli qo`shma gaplar deyish to`g`ri bo`ladi. Mazkur vaziyatda bir havola bo`lakli gaplarning  qolipi “buziladi”. Bunday holatlarda bosh gap sinsemantik, ergash gap esa avtosemantik bo`ladi. Havola bo`laksiz bo`lganda esa xilma-xil ifoda vositalariga ko`ra qo`shma gap qismlari nisbiy mustaqillik jihatidan turli maqomga (avtosemantik, sinsemantik) ega bo`lishi mumkin.

Demak, bir havola bo`lakli qo`shma gaplarda bosh gap asosan, sinsemantik, ergash gaplar esa avtosemantik bo`ladi. Bunday qo`shma gaplarda bosh gap va ergash gap o`rtasidagi mantiqiy muvofiqlik saqlanmaydi. Bunda havola bo`lak – olmoshning ma`nosidagi “bo`shliq” gap semantikasiga ham ta`sir qilishi yaqqol ko`rinadi. Bu “bo`shliq” evaziga so`zlovchi kesimga mantiqiy urg`u berish, turli sub`ektiv munosabatlarni ifodalash imkoniyatiga ega bo`ladi.

II.2. Havola bo`lakli qo`shma gaplarda shakl va mazmun munosabati

b). Ikki havola bo`lakli gaplarning mazmuniy tuzilishi

Ikki havola bo`lakli qo`shma gaplar qurilishida nisbiy so`zlarning o`rni juda muhim. Bunday gaplar asosan $\bigcirc \rightarrow \square$ qolipida bo`lib, ergash gap oldin, bosh gap keyin keladi. Ergash gap tarkibida *kim, nima, qaer, qanday, qancha* kabi so`roq olmoshlari, bosh gap tarkibida esa shu so`roqlarga javob bo`luvchi *u, shu, o`sha, shu yer, shunday, shuncha* kabi ko`rsatish olmoshlari keladi. Ularda shakl va mazmun mutanosibligi saqlanadi. Masalan:

Musobaqada kim g`olib chiqsa, o`sha mukofotlanadi.

Bu gapda bosh gap (*o`sha mukofotlanadi*) ergash gap (*musobaqada kim g`olib chiqsa*)dan keyin kelgan. Ko`rinib turganiday, har ikki gapda ham havola bo`lak bo`lib, ular *kim* va shunga muvofiq *o`sha* so`zlari bilan ifodalangan. Ana shu biri ikkinchisiga muvofiq keluvchi havola bo`lakning mavjudligi, shunga ko`ra o`ziga xos sintaktik mexanizmga ko`ra (o`zaro tobelanish) ikki gap juda zich bog`langan. Mazmunan olib qaralsa, qo`shma gapda ikki o`zaro bog`langan denotativ voqea ifodalangan. Bir qarashda, *-sa* qo`shimchasi va uning ma`nosiga ko`ra bu ikki denotativ voqea o`rtasidagi munosabat shart munosabatidan iborat, ya`ni birinchi voqeaning amalga oshishi o`z-o`zidan ikkinchi voqeani keltirib chiqaradi. Ammo diqqat bilan qaralsa, mazkur shart ma`nosi ikkinchi planga surilgan. Bu shu bilan bog`liqqi, ikkala denotativ voqea tabiatan har xil emas, ya`ni birinchi voqea sub`ekt jihatidan umumlashgan, mavhum, ikkinchi voqea esa sub`ekt jihatidan birinchi voqea bilan nisbatlangan holda konkret, aniq. Demak, voqealar mazmunan noteng. Ayni paytda bosh va ergash gaplardagi egalar o`rtasida mazmuniy-sintaktik parallelizm bor, ya`ni, umuman, *kim* va *o`sha* olmoshlari ayni matnda deyarli bir denotativ ishoraga ega, faqat bu ishora ularning birida savol bilan «o`ralgan», ikkinchisida esa savolsiz. Bundan ko`rinadiki: *Musobakada kim g`olib chiqsa, o`sha mukofotlanadi* gapida «*g`olib chiqish*» harakatini ham, «*mukofotlanish*» harakatini ham bir sub`ekt bajaradi. Yoki: *Musobaqada Ahmad g`olib chiqsa, Ahmad mukofotlanadi*. Bosh gapda ifodalangan denotativ voqea sub`ektning tavsifli, demak, ta`kidli ifodasiga nutqiy aloqada zaruriyat bo`lmasa, ergash gapdagi denotativ voqeaning sub`ekti ta`kidlangan parallelizmga ko`ra matndan chiqarib yuboriladi va ayni denotativ voqea nominativ shaklda bosh gapdagi denotativ voqeaning sub`ekti sifatida anglanadi, bu holda qo`shma gap sodda gapga aylanadi:

Musobaqada kim g`olib chiqsa, o`sha mukofotlanadi— Musobaqada g`olib chiqqan mukofotlanadi.

Bunday ergash gapli qo`shma gaplarda bosh gapdagi kesim vazifasida keladigan so`z ma`no jihatidan chegaralangan emas, bu vazifada turli ma`noli so`zlar kelishi mumkin.

Aytish kerakki, bunday qo`shma gaplarda ikki noteng tabiatli denotativ voqea o`rtasidagi

munosabat ifodalanadi. Aytilganlarni quyidagi misollarda ko`rish mumkin; ba`zan ergash gapdagi havola bo`lak *-ki* uzvi bilan ham qo`llanishi mumkin, u ta`kid uchun xizmat qiladi:

Kim nafsini tiymasa, u to`g`ri yo`lda ham sirg`anar (Maqol). *Kimki ikkilanuvchilarga yordam qilishni istar ekan, u avvalo o`zining ikkilanishiga barham berishdan ish boshlashi kerak* («Aql aqldan quvvat olar»). *Kimki taqdirga tan bersa, u hayot to`lqinida g`arq bo`lib ketadi* (O.Yoqubov).

Ba`zan bosh gapdagi havola bo`lak qo`llanmasligi ham mumkin. Bunda ikki havola bo`lakli ergashgan qo`shma gap bir havola bo`lakli qo`shma gapga aylanmaydi. Chunki havola bo`lakning egadan iborat sintaktik o`rni bari bir bilinib turadi. Buning ustiga bosh gapdagi eganing ifodalanmaganligi faqat shaklan xolos, mazmunan esa eganing bevosita ifodalanmaganligi sezilmaydi, chunki ergash gapdagi denotativ voqea mazmunan bosh gapning egasiga nisbatlanadi. Ana shuning uchun ham oldingi holatdagi, ya`ni bosh gapda havola bo`lak shaklan ifodalanganda ega ergash gapli qo`shma gapga xos bo`lgan mazmuniy xususiyatlarning barchasi bu holatda ham saqlanaveradi. Ayrim hollarda bosh gapdagi denotativ voqea bir paytning o`zida sub`ekt jihatidan umumlashgan birdan ortiq denotativ voqea bilan aloqaga kirishishi mumkin. Bunday hollarda ergash gapli qo`shma gapda birdan ortiq ergash gap ishtirok qiladi:

Kim o`z xalqini o`ylasa, kim Vatani uchun mehnat qilsa, albatta rohatini ko`radi.

Havola bo`laklar sifatida faqat shaxs bilan aloqador bo`lgan *kim-shu, kim-u, kim-o`sha* qabilidagi qarshilantirilgan olmoshlargina ishtirok etmaydi, shaxs ma`nosiga ega bo`lmagan *nima-shu, nima-o`sha, nima narsa-o`sha narsa* kabi qarshilantirishlar ham kelaverishi mumkin:

Nima narsa ko`p bo`lsa, o`sha narsa xor bo`ladi (Maqol). *Qozonga nima tushsa, cho`michga ham o`sha chiqadi* (Maqol).

Ikki havola bo`lakli ega ergash gapli qo`shma gaplarda bosh va ergash gaplardagi havola bo`laklar mazmuniy-sintaktik parallelizmga ega, ya`ni ular qo`shma gapning har ikki qismida ega sintaktik o`rnini egallagan. Ammo bu mutlaq doimiy holat emas. Ba`zan bu parallelizm buzilishi ham mumkin. Bunda bosh gapdagi havola bo`lak ega vazifasida bo`lgani holda ergash gapdagi unga muvofiq keluvchi havola bo`lak boshqa sintaktik o`rinni, xususan, ko`proq to`ldiruvchining o`rnini egallagan bo`ladi. Lekin bu denotativ voqealar o`rtasidagi mazmuniy munosabatlarning tabiatiga sezilarli ta`sir qilmaydi. Masalan, *Biz nimani ko`rsatsak, mehmonga shu ma`qul bo`lard* gapida bosh gapdagi havola bo`lak *shu* ega vazifasida, ergash gapdagi havola bo`lak *-nimani* esa to`ldiruvchi vazifasida kelgan, ya`ni havola bo`laklar mazmuniy-sintaktik parallelizmga ega emas. Bu, albatta, bosh va ergash gaplardagi predikatlar (*ma`qul bo`lmoq, ko`rsatmoq*)ning valentliklarida mutanosiblikning yo`qligi (masalan, *ma`qul bo`lmoqning* vositasiz ob`ekt valentligi yo`q, *ko`rsatmoqda* esa shunday valentlik bor) bilan

izohlanadi. Mazmuniy munosabat esa ayni gapda avvalgi ko`rilgan gaplardagidan deyarli farq qilmaydi:

Qalbingiz nimani buyursa, siz menga shuni buyuring (P.Qodirov)

Ega ergash gapli qo`shma gaplarning ikki havola bo`lakli ko`rinishida esa bosh gap ham, ergash gap ham sinsemantik, ya`ni alohida olinganda, ma`noga ega bo`lolmaydi, chunki har ikki gapda ham havola bo`lak mavjud. Buning ustiga bunday qo`shma gap qismlari o`rtasida bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama tobelanish ya`ni o`zaro tobelanish bor.

Kesim ergash gapli qo`shma gapning *Sen nima bo`lsang, bizam shu* qabilidagi ikki havola bo`lakli turiga kelsak, bu tur u qadar keng tarqalgan emas. Bunday gaplar aslida qo`shma gaplarning boshqa tur (aniqlovchi, o`rin, o`lchov-daraja kabi)laridagi sintaktik jarayonlar natijasida yuzaga kelgan. Mazkur gapda bosh gapning kesimi *shu* havola bo`lagi bilan, ergash gapning kesimi esa *nima bo`lsang* havola bo`lagi bilan ifodalangan. Aslida bosh gapning kesimi ham *shu bo`lamiz* shaklida bo`lishi kerak, lekin *bo`lmoq*, har ikki o`rinda ham (*nima bo`lsang — shu bo`lamiz*) yordamchi fe`l bo`lgani uchun keyingi o`rinda tushib qolgan. Ergash gapdagi nima (*bo`lsang*) havola bo`lagi bilan bosh gapdagi *shu* havola bo`lagi bir-birini taqozo etadi, o`zaro tobe aloqa yuzaga kelgan. Ega kesim gapli qo`shma gaplarning tegishli turidagi kabi ikki noteng denotativ voqea o`rtasidagi munosabat ayni qo`shma gapning mazmunini tashkil etadi. Bir umumlashgan (predikatga ko`ra) denotativ voqea ikkinchi bir predikat jihatdan aniq bo`lmagan denotativ voqeaning ichiga predikat sifatida kiradi. Shuni aytish kerakki, har ikki denotativ voqeaning predikati bari bir aniq aytilmaydi, lekin tinglovchi uchun umumiy tarzda idrok etiladigan bo`ladi. Quyidagi gapda ham buni ko`rish mumkin:

Kim yaxshi o`qisa, kelajak kaliti uniki bo`ladi (Gazetadan).

Bunday holatdagi qo`shma gaplardagi muayyan sintaktik surilishning borligi ularni kesim ergash gapli qo`shma gaplar sifatida talqin etish imkonini beradi. Misoldagi kim — uniki qarshilantirishidagi havola bo`laklar odatda kesim ergash gapli qo`shma gaplarga tegishli.

Aytib o`tish joizki, kesim ergash gapli qo`shma gaplarning bu turida ilgari aytilgan o`zaro tobelanishga ko`ra har ikki qism – bosh gap ham, ergash gap ham sinsemantikdir.

Vatan nimani talab qilsa, shuni sidqidildan bajaramiz (O`.Umarbekov).

To`ldiruvchi ergash gapli qo`shma gaplarning ikkinchi, ya`ni ikki havola bo`lakli ko`rinishida *nimani— shuni* (ba`zan *kimni — o`shani*) tarzidagi havola bo`laklar qarshilantirilishi mavjud. Keltirilgan *Vatan nimani talab qilsa, shuni bajaramiz* gapida buni ko`rish mumkin. Ayni qarshilantirilgan muvofiqlikka ko`ra, qo`shma gap qismlariaro aloqa juda zich, chunki o`zaro tobelanish mavjud. Avvalgi holatdagidan farqli o`laroq gapda ikki denotativ voqea ifodalangan, demak, gapda mazmuniy-sintaktik nomuvofiqliq yo`q. Qo`shma gapning mazmuni ana shu ikki denotativ voqea o`rtasidagi munosabatdan iborat. Ergash gapda ifodalangan

denotativ voqea ob`ekt jihatidan mavhum, umumlashgan, bu denotativ voqea mazmunan bosh gapda ifodalangan denotativ voqea ichiga ob`ekt sifatida kiradi. Ammo bari bir ob`ekt jihatdan umumlashganlik, mavhumlik yaxlit qo`shma gapda ham saqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, ayni ob`ektning nima ekanligi bosh gapda ham, ergash gapda ham konkret, ochik aytilmaydi. Lekin u umuman anglashilarli bo`ladi, aks holda gap nutqiy aloqa uchun yaroqli bo`lmasdi, demak, gap qurilishi nazariy jihatdan noto`g`ri bo`lardi. Biroq unday emas. Aytish mumkinki, bunday hollarda gapdagi ob`ekt bir qadar umumlashgan holda ifodalanadi¹. Quyidagi gaplarda buni ko`rish mumkin:

Qalbingiz nimani buyursa, siz menga shuni buyuring (P.Qodirov). *Ba`zilari nimani gapirgan bo`lsa, shuni qog`ozga tushirdim* (U.Hoshimov). *Ikki kun orasida nima tayinlasak, shuni muhayyo qilasan* (Sh.Xolmirzaev, T.Usmonov).

Nutqda ba`zan bunday ergash gapli qo`shma gaplarning bosh gaplari tarkibidagi to`ldiruvchi vazifasidagi havola bo`lak shaklan ifodalanmasligi ham mumkin. Ammo bu mazmuniy munosabatlarning to`liq ifodalanaverishiga to`squinlik qilmaydi. Buni quyidagi misollarda ko`rish mumkin:

Nima bersangiz (shunga) rozimiz (N.Qobul). *Ularning dadalari nima deyishsa, (o`shani) olib berishadi* (S.Ahmad). *Nimani so`ramasin, to (o`shani) topib bermaguncha tinchimaydi* (N.Qilichev).

Yuqorida ko`rib o`tilgan misollarda havola bo`laklar o`rtasida parallelizm bor, ya`ni havola bo`lakning har ikkalasi ham to`ldiruvchi sintaktik o`rinni egallagan. Ba`zan bu parallelizm buzilishi ham mumkin, ya`ni ergash gapdagi havola bo`lak ega sintaktik o`rinni, bosh gapdagi havola bo`lak esa to`ldiruvchi sintaktik o`rnini egallashi mumkin. Bosh gapdagi havola bo`lakning o`rni to`ldiruvchi bo`lganligi uchun ham ergash gap to`ldiruvchi ergash gap sifatida haraladi. Bunda ham mazmuniy munosabat avvalgi holatdagiday ifodalanaveradi. Masalan:

1. *Kimki mustaqil fikr yuritmasa, uni boshqalar oson egib oladi.*
2. *Kim ko`p uxlasa, uni baraka tark etadi.*

Ikki havola bo`lakli to`ldiruvchi ergap: gaplarda esa har ikki qism — bosh gap ham, ergash gap ham sinsemantik, chunki qismlararo tobelanishga ko`ra biri ikkinchisiz ma`noga ega emas.

Aniqlovchi ergash gapli qo`shma gaplarning ikki havola bo`lakli turida *kimning-uning, kim-uning, qanday — shunday, qaysi — o`sha* tarzidagi qarshilantirilgan havola bo`laklar mavjud bo`ladi. Bunday gaplarda ham ikki denotativ voqea ifodalanadi va ular o`rtasidagi aloqa juda zich bo`ladi, chunki bunday gaplarda ham mazmunan, ham shaklan o`zaro tobelanish

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 262-б.

mavjud. Masalan:

Kimning aqli ko`p bo`lsa, ayblari yashirin va do`stlari ko`p bo`ladi. Kimning ichi nog`ora singari bo`sh bo`lsa, uning behuda so`zlari atrofda gilarning miyasini egovlaydi.

Hol ergash gapli qo`shma gaplar ergash gapning tabiatiga ko`ra turli-tuman mohiyat kasb etadi. Jumladan, payt ergash gapli qo`shma gaplarning asosiy qismi havola bo`laksiz bo`ladi. Ergash gap payt holi sifatida to`g`ridan-to`g`ri bosh gap tarkibiga kiraveradi va demak, havola bo`lakka zaruriyat bo`lmaydi. Lekin u qadar keng tarqalmagan bo`lsa-da, ikki havola bo`lakli payt ergash gapli qo`shma gaplar ham bor. Bunday gaplarda *qachon* — *shunda*, *o`shanda*, *o`sha paytda* tarzida qarshilantirilgan havola bo`laklar mavjud bo`ladi. Masalan, *Sen qachon o`ninchi sinfni bitirsang, o`shanda soat olib beraman* gapida bosh gapdagi *o`shanda* havola bo`lagi payt holi vazifasida kelgan, ergash gapda ham xuddi shunday sintaktik o`rindagi mos qachon havola bo`lagi bor. Ikkala denotativ voqea payt jihatidan umumiylikka ega, ikkala voqea ham bir paytda amalga oshadi, lekin, bu payt umuman anglashilarli bo`lsa-da, ochiq-aniq aytilmaydi. Bu gapda, havola bo`lakni chiqarib yuborganda ham gapdagi payt munosabati o`zgarmaydi; faqat ta`kid bir qadar kuchsizlanadi: *Sen o`ninchi sinfni bitirganingda; soat olib beraman.*

Ravish ergash gapli qo`shma gaplarda ham havola bo`lak mavjud bo`lmaydi. Ergash gapda ham, bosh gapda ham, asosan, denotativ voqea ifodalanadi. Ergash gapda ifodalangan denotativ voqea bosh gapdagi denotativ voqea ichiga tarz bildiruvchi uzv sifatida bevosita kiradi¹.

O`rin ergash gapli qo`shma gaplar, asosan, ikki havola bo`lakli bo`ladi. Bunday qo`shma gaplarda bosh gap ham, ergash gap ham denotativ voqeani ifodalaydi. Bu denotativ voqealar o`rin jihatidan umumiylikka ega bo`ladi, ammo ergash gapda ifodalangan denotativ voqeaning sodir bo`lish o`rni aniq emas, balki umuman aytiladi, shuning uchun ham *u qaerda*, *qaerdaki*, *qaerga* kabi so`roq shakllari bilan ifodalanadi. Bosh gapda esa ana shu so`roqlarga muvofiq keluvchi *o`sha yerda*, *u yerda*, *u yerga* kabi havola bo`laklar mavjud bo`lib, ular bosh gapdagi harakatning bajarilish o`rnini bildiradi, ya`ni o`rin holi sintaktik pozitsiyada bo`ladi. *Qaerda* — *u yerda* qabilidagi havola bo`laklar bir-birini doimiy takozo qiladi va denotativ voqealar o`rtasidagi mustahkam aloqani ta`min etadi. Masalan, *Qaerda suv serob bo`lsa, u yerda tabiat ko`rkam bo`ladi* («Yoshlik») gapida bosh gapda hol sintaktik o`rnida kelgan *u yerda* havola bo`lagi ergash gapdagi *qaerda* havola bo`lagi (*u* ham hol o`rnida) bilan nisbatlanadi va shu asosda ergash gapdagi denotativ voqeani asosiy voqea ichiga olib kiradi. Bunda bosh gapdagi denotativ voqeaning sodir bo`lish o`rni ta`kidli ifodaga ega bo`ladi. Agar shunday ta`kidli ifoda zaruriyati bo`lmasa, havola bo`laklar gapdan chiqarib yuboriladi va gap sodda gapga aylanadi. Masalan:

¹ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 273-274-б.

Suv serob boʻlgan joyda tabiat koʻrkam boʻladi.

Quyidagi misollar ham aytilganlarni dalillaydi: *Qaerda ahillik boʻlsa, oʻsha yerda yutuq bor. Beor musicha qaerda gʻuv-gʻuv qilsa, oʻsha yerda uning halovati yoʻq* (Mirmuhsin). *Oqsoqol qaerda boʻlsa, oʻsha joyda ish bir tartibda borardi* (Oʻ.Hoshimov). *Egardagi suvoriy jilovini qayoqqa tortsa, oʻsha tomonga yoʻl solardi* (S.Ahmad).

Ilgari ham aytib oʻtilganidek, ikki havola boʻlakli ergashgan qoʻshma gaplarda bosh va ergash gaplarni bogʻlovchi shakliy vosita asosan ayni havola boʻlaklarning oʻzi va *-sa* shart mayli qoʻshimchasi. Keltirilgan misollarda bu koʻrinib turibdi.

Aytish kerakki, baʼzan havola boʻlaklarning biri, yaʼni bosh gapdagisi shaklan ifodalanmasligi ham mumkin. Ammo bu bilan ikki havola boʻlakli oʻrin ergash gapli qoʻshma gap bir havola boʻlakliga aylanib qolmaydi. Chunki bosh gapdagi oʻrin holi sintaktik oʻrnining ochiq ekanligi sezilib turadi. Avvalgi holatlardagi mazmuniy-sintaktik aloqa mexanizmi amal qilaveradi, yaʼni bosh gapdagi havola boʻlak shaklan ifodalanmaganda ham, yaxlit qoʻshma gapdagi mazmuniy munosabat ifodasida sezilarli oʻzgarish boʻlmaydi. Quyidagi gaplarda buni koʻrish mumkin:

Qaerda paydo boʻlsalar, el oyoqqa turib kutib oladi (A.Muxtor). *Qaerda ishlamasin, orqasidan faqat yaxshi gap qolardi* (S.Ahmad). *Qaerdaki, bu mutanosiblik buzilsa, fojia kelib chiqadi* (S.Siyoev).

Oʻrin ergash gapli qoʻshma gaplarda mazmuniy-sintaktik muvofiqlik asosan saqlanadi. Ayni paytda ularda bosh gap ham, ergash gap ham sinsemantikdir, chunki qoʻshma gap qismlariaro oʻzaro tobelanish mavjud.

Oʻlchov-daraja ergash gapli qoʻshma gaplarning ikki havola boʻlakli turi nisbatan keng tarqalgan. Ergash gapli qoʻshma gaplarning boshqa ikki havola boʻlakli turlaridagi kabi bunday gaplarda ham qarshilantirilgan havola boʻlaklar mavjud boʻladi, yaʼni *qancha — shuncha, qanchalik — shunchalik* kabilar. Bosh gapda shuncha, shunchalik kabi havola soʻzlar mavjud boʻladi va ular oʻlchov-daraja xoli sintaktik oʻrnida keladi. Qancha, qanchalik soʻzlari ham ergash gapda shunday oʻrinda boʻladi, demak, ular orasida parallelizm boʻladi, ikki denotativ voqea harakatning miqdoriy belgisiga koʻra umumiydir. Voqealar oʻrtasidagi munosabat oʻzaro tobelanishga koʻra juda zich boʻladi. Masalan:

Tohirjonning dardi qancha ogʻirlasha, u shuncha quvonadi (Oybek). *Odatda sholikorlik botqogʻida qancha koʻp yurilsa, shuncha qiyogʻi koʻp boʻladi* (S.Ahmad). *Vaqt qancha oxirilsa, ish ham shunchalik ogʻirlashib borardi. Qanchalik omading yurshisa, shunchalik seni jini suymaydiganlar koʻpayadi* (N.Qobul).

Yuqoridagilardan koʻrinadiki, ikki havola boʻlakli ergashgan qoʻshma gaplarda mazmuniy-sintaktik muvofiqlik asosan, hamisha saqlanadi. Qoʻshma gap kismlaridagi oʻzaro

tobelanishga ko`ra bosh gap ham, ergash gap ham avtosemantik bo`lolmaydi. Bu holatda ham mazmunan bo`sh bo`lgan olmoshning gap semantikasiga ta`siri sezilib turadi. Havola bo`lakning har ikki gapda kelishi ular o`rtasidagi aloqadorlik va taqozo qilish holatini kuchaytiradi.

UMUMIY XULOSALAR

Ushbu ishni o`rganish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Bugungi kunda o`zbek tilini an`anaviy metodlar orqali o`rganish bilan birga, jahon tilshunosligida keng ko`llanilayotgan sistemaviy-struktur metodlar asosida o`rganish tobora kengayib bormoqda. Har qanday sistem tadqiqot lisoniy birliklarga ma`lum elementlar munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida yondashishni va elementlarning butunga bo`lgan munosabati hamda butun bilan butunning munosabatini yoritib berishni taqozo etadi. Sintaksisning azaliy muammolaridan biri ergashgan qo`shma gaplar, ularda turli sub`ektiv, modal munosabatlarning ifodalanishi, bunda deytik belgilar, havola bo`laklarning o`rnini belgilash masalasiga qaratiladi.

2. Sintaksisning muhim masalalaridan biri bo`lgan shakl va mazmun yorqin namoyon bo`ladigan ergash gapli qo`shma gaplarda havola bo`laklarning bir-birini taqozo qilishi, uning o`rni doimo “bo`sh” qolishi, buning natijasida bosh gap va ergash gap o`rtasida mazmuniy nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin.

3. O`zbek tilidagi ergash gapli qo`shma gaplarda asosiy «axborotni aktuallashtiruvchi» sifatida, ya`ni modus ifodachisi sifatida bosh gap ham, ergash gap ham kelaverishi mumkin.

4. Modus ifodalovchi tizim ixchamlashishga moyil bo`ladi. Buni yaxlit gapda denotativ voqeaga qaraganda modusning nomuhimligi bilan izohlash mumkin. Ana shu nomuhimlik, aslida, tegishli so`z shakllaridagi ma`nolarning kuchsizlanishiga yoki neytrallasishiga olib keladi. Bu neytrallasuv ko`pgina ergash gapli qo`shma gaplarda juda aniq bo`ladi.

5. Ba`zan bosh gapda ega vazifasidagi havola bo`lak tushib qolishi ham mumkin. Bu turkiy tillardagi, xususan, o`zbek tilidagi gap qurilishining xususiyati, ya`ni shaklan ifodalanmagan eganing kesimdagi tegishli qo`shimchalar orqali anglanaverishi bilan izohlanadi.

6. Ega ergash gapli qo`shma gaplarning tahlil etilgan bir havola bo`lakli turida mazmuniy bog`lanish juda zich, bu bog`lanishni ta`minlovchi shakliy vosita *-ki* uzvdir, lekin havola bo`lakning bundagi muayyan ishtirokini ham ta`kidlamoq lozim. Chunki ayni qo`shma gap qismlari orasidagi bog`lanishining sintaktik mexanizmida bu bo`lak asosiy o`rin tutadi.

7. Bosh gapdagi havola bo`lakning shaklan ifodalanmasligi ifodalangan holatlarga qaraganda ko`proq uchrashini ta`kidlamoq lozim. Shu ham muhimki, bosh va ergash gaplardagi kesim vazifasidagi fe`l grammatik jihatdan chegaralangan emas, ya`ni bu fe`llar son, shaxs, zamon, bo`lishli-bo`lishsizlik jihatidan chegaralanmagan.

8. Bir havola bo`lakli aniqlovchi ergash gapli qo`shma gaplarda mazmuniy-funksional va mazmuniy-sintaktik muvofiqlik mavjud bo`ladi. Ulardagi mazmun ikki (yoki undan ortiq) denotativ voqea o`rtasidagi munosabatdan iborat.

9. Ikki havola bo`lakli qo`shma gaplar qurilishida nisbiy so`zlarning o`rni juda muhim. Bunday gaplar asosan $\bigcirc \rightarrow \square$ qolipida bo`lib, ergash gap oldin, bosh gap keyin keladi.

10. Ikki havola bo`lakli ergashgan qo`shma gaplarda mazmuniy-sintaktik muvofiqlik, asosan, hamisha saqlanadi. Qo`shma gap kismlaridagi o`zaro tobelanishga ko`ra bosh gap ham, ergash gap ham avtosemantik bo`lolmaydi. Bu holatda ham mazmunan bo`sh bo`lgan olmoshning gap semantikasiga ta`siri sezilib turadi. Havola bo`lakning har ikki gapda kelishi ular o`rtasidagi aloqadorlik va taqozo qilish holatini kuchaytiradi.

11. O`zbek tilshunosligida deytik belgilar ya`ni havola bo`laklar ergashgan qo`shma gaplarning qurilishi va mazmunida “bo`sh nuqta” sifatida namoyon bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. Т. 5. - Т.: Ўзбекистон, 1997. -384 б.
2. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. - Т.: Ўзбекистон, 1998. - 480 б.
3. Абдуллаев Ф.А. - Сўз бирикмалари синтаксисининг айрим масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1969. -№1-6. - Б.34-41.
4. Абдурахмонов Ғ. Синтаксис старотюркского языка. - М.: Наука, 1971.-210 с.
5. Абдурахманов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари.- Т.: Фан, 1958.-325 б.
6. Абдурахманов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси: Синтаксис. - Т.: Ўқитувчи, 1996. -248 б.
7. Абдуллажонова Ж. Стилистик кузатишлар // Тош.давлат ун-тининг илмий асарлари. - 1973. - Чик. 443. - Б. 111-114.
8. Бегматов Э. Нутқ маданияти тушунчаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1975. - №5. - Б. 48-53.
9. Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик сигнификатив парадигматика. -Т.: Фан, 1989. - 107 б.
10. Бердиалиев А. Ўзбек тилида омоним модели эргаш гапли қўшма гаплар. -Т.: Фан,1990. - 111 б.
11. Бердиалиев А. Узбек тили синтактик парадигматикаси асослари.-Т.:Фан, 1991.- 112 б.
12. Бердалиев А. Ўзбек тили эргаш гапли қўшма гапларида синтактик алоқа ва синтактик муносабатлар. —Т.: Фан, 1992.—112 б.
13. Иброҳимов А. Тил - тақдир демак. - Т.: Фан, 1990. - 84 б.
14. Иброҳимов М. «Тилга эътибор - элга эътибор». Нутқ маданияти ва талаффуз ҳақида. - Т.: Ўзбекистон, 1972. -36 б.
15. Комилова Х. Гапда сўзларнинг боғланиши. - Т.: Фан,1955. - 26 б.
16. Лутфуллаева Д. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий мазмуний номувофиклик: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. - Т., 1997. —Б.6.
17. Мамажанов А. Қўшма гап стилистикаси. - Т.: Фан, 1990. – 112 б.
18. Маъруфов З. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Ўқитувчи, 1980.-136 б.
19. Маҳмудов Н., Ҳожиев А. Семантик ва синтактик позиция // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1987. - №2. - Б.60-63.
20. Маҳмудов Н. Ўзбек тили синтаксисининг долзарб масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1990. - №2. - Б. 36-43.
21. Менглиев Б. Узбек тилининг структур синтаксиси: Уқув — қўлланма. - Қарши:

- Насаф, 2003. — 147 б.
22. Мирзаев, Усманов С., Расулов И. Ўзбек тили. -Т.: Ўқитувчи, 1966.-267 б.
 23. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. - Т.: Фан, 1975. - 140 б.
 24. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. - Т.: Ўқитувчи, 1995. -128 б.
 25. Нурмонов А ва бошқ. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: Ўқитувчи, 2001. -248 б.
 26. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. - Т.: ТДГИ, 1988.-99 б.
 27. Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. - Андижон: Нашриётсиз, 1992. - 36 б.
 28. Нурмонов А. Лисоний бирликларда умумийлик-хусусийлик, моҳият-ҳодиса диалектикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1995. -№1.-Б. 42-46.
 29. Нурмонов А., Маҳмудов Н. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. - Т.: Ўқитувчи, 1995. - 232 б.
 30. Нурмонов А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т.: Ўзбекистон, 2001. -256 б.
 31. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида гап бўлақларининг семантикаси ва грамматикаси. - Т.: Фан, 2000.
 32. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили формал - функционал талқинда. Қўшма гап. - Т.: Фан, 1993.- 308 б.
 33. Сайфуллаева.Р. Ҳозирги ўзбек тилида уюшувчи ва уюштирувчи элементлар. - Т.: Меҳнат, 1990. -69 б.
 34. Турсунов Б. Стилистическая характеристика парцеллированных конструкций в узбекском языке. Труд Самарк. ун-та. - 1975. - Выш. 269. - С. 63.
 35. Тоҳиров З. Ўзбек тилида прагматик семалярнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага чиқиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. - Т., 1994. -125 б.
 36. Убаева Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳол категорияси.-Т.: Фан, 1972.-148 б.
 37. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили сўз бирикмаси ва содда гап синтаксисидан лекциялар. -Т., 1990.
 38. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари / Масъул муҳаррир Э.Бегматов. - Т.: Фан, 1974. - 148 б.
 39. Ўзбек тили грамматикаси ва пунктуацияси масалалари. -Т.: Ўзфан, 1959. -267 б.
 40. Усмонова Ҳ. Дескрипция (мураккаб ном) ва унинг гап тузилишидаги ўрни: Филол. фанлари номзоди ... дис. — Т., 1994. —127 б.
 41. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз ясалиши.-Т.:Ўқитувчи,1989.-112 б.

42. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида форма ясаши. -Т.: Ўқитувчи, 1979. -80 б.
43. [http:// www. yazikoznaniye. ru.](http://www.yazikoznaniye.ru)
44. [http: \ www. nuu. uz](http://www.nuu.uz)